

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA» FAKUL'TETI

Geografiya yonalish 2-kurs 201-guruh talabasi

Akaboyev Ismatillaning

Jahon geografiyasi fanidan

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI

mavzudagi

KURS ISHI



MAVZU: MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI

Reja:

Kirish

1. Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Turon va Turkiston atamalarining mohiyati
2. Qozog'iston Respublikasi
3. Qirg'iziston Respublikasi
4. Tojikiston Respublikasi
5. Turkmaniston Respublikasi
7. O'zbekiston Respublikasi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

O'zbekiston va unga qo'shni bo'lgan Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari O'rta Osiyo hududidagi mamlakatlardir. Qozog'iston O'rta Osiyo davlati deb tan olinmasa ham, hududiy asosiy qismini ushbu regionda joylashganligini hisobga olgan holda, O'rta Osiyo davlatlari qatoriga kiritish mumkin. O'rta Osiyo davlatlari jahon siyosiy xaritasida 1991- yil kuzida, sobiq Ittifoqning barham topishi bilan paydo bo'ldi.

O'rta Osiyo sobiq Ittifoq davrida bir tomonlama, asosan xomashyo va yarim xomashyo mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Bu hudud sobiq Ittifoq paxtasining 93 foizi (Gahon paxtasining 12 foizi)ni, ko'plab mis, qo'rg'oshin, xrom, oltin, uran kabi rangdor metallarni yetkazib bergan.

Geografik o'lining eng muhim xususiyatlaridan biri uning ulkan Yevroosiyo materigining deyarli qoq o'rtasida, Dunyo okeanlaridan uzoqda joylashganligidir. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mintaqa davlatlari jahon bozorlariga olib chiqadigan yangi transport yo'llarini tashkil qilishga kirishdilar. Natijada ilgari Rossiya orqali dengizlargacha olib boruvchi yagona transport yo'li qo'shimcha Eron orqali Fors qo'ltig'iga, Kavkaz orqali Yevropaga, Xitoy orqali Tinch okean bo'ylariga yetkazuvchi temir va avtomobil yo'llari tashkil qilindi.

O'rta Osiyoning maydoni 4 mln. km² (jahon quruqlik maydonining 3,0 foizi), aholisi 57 mln. kishini (jahon aholisining salkam 1,0 foizi) tashkil qiladi. Uning hududi g'arbdan sharqqa 3 ming km, shimoldan janubga 2,5 ming km masofaga cho'zilgan bo'lib, Osiyoning o'rta kengliklarida joylashgan.

Iqlimi, asosan, quruq, keskin kontinental.

Tabiiy namlik asosida bahorikor dehqonchilik O'rta Osiyoning Shimoliy Qozog'iston va baland tog'oldi adirlari va tog'yonbag'irlarida olib boriladi. Mintaqaning oqar suv manbalariga ega bo'lgan vodiylar va vohalarda har jihatdan iqtisodiy rivojlangan hududlari joylashgan.

O'rta Osiyo **mineral tabiiy resurslar** bilan ancha yaxshi ta'minlangan. U neft va tabiiy gaz zaxiralariga ko'ra Osiyoda Fors qo'ltiqbo'yi va G'arbiy Sibir hududlaridan keyin uchinchi mintaqadir. Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalari bu xildagi tabiiy boyliklarga boy. Bu respublikalarning Kaspiybo'yi pasttekisliklari, Janubi-g'arbiy cho'l hududlarida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik neft va gaz konlari joylashgan. Shuningdek, bu o'lka xilma-xil qora va rangdor metall rudalari (mis, polimetall, oltin, uran, simob kabilar) bilan ancha yaxshi ta'minlangan. Bunday tabiiy resurslar zaxiralariga ko'ra Qozog'iston va O'zbekistonning imkoniyatlari juda katta. Subregion respublikalaridan Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekiston turli kimyoviy mineral resurslar (tuzlar, fosforit, oltingugurt) bilan ham yaxshi ta'minlangan.

1. Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Turon va Turkiston atamalarining mohiyati

Markaziy Osiyo atamasi sobiq itifoq tarkibidagi ittifoqdosh respublikalar o'rnida – Qozog'iston Respublikasi (1991 yil 16 dekabr), Qirg'iziston Respublikasi (1991 yil 30 avgust), Turkmaniston Respublikasi (1991 yil 27 oktyabr), Tojikiston Respublikasi (1991 yil 9 sentyabr) va O'zbekiston Respublikasi (1991 yil 31 avgust) mustaqil davlatlarining tashkil topishi bilan xalqaro ko'lamda siyosiy, iqtisodiy va geografik atama sifatida qo'llanila boshlandi.

Markaziy Osiyo atamasi – Markaziy Osiyo tabiiy-geografik oblastidan kichik (Markaziy Osiyo tabiiy-geografik oblasti 6,0 mln. km²) bo'lib, O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'istonga nisbatan qo'llaniladi va davlatlararo mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonini ifoda etadi.

Markaziy Osiyoda yagona iqtisodiy makon tashkillash 1993 yildan boshlandi (dastlab, O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida yagona iqtisodiy makon yaratish to'g'risida bitim tuzildi, so'ngra bu bitimga Qirg'iziston qo'shildi. 1998 yil Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston kuzatuvchi sifatida qabul qilindi). 1998 yil 17 iyulda CHo'lponota shahrida (Qirg'iziston) Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy birlashmasi «Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati» nomini oldi. 1999 yil bu davlatlararo kengashda Gruziya, Turkiya va Ukraina davlatlari kuzatuvchi sifatida ishtrok eta boshladi. 2002 yil 28 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning taklifi bilan (Toshkent bayonoti) hamjamiyat faoliyati doirasini kengaytirish maqsadida Markaziy Osiyo hamkorligi Tashkiloti deb atala boshlandi.

Davlat boshliqlarining Almati uchrashuvida (2000 yil 28 fevral) Markaziy Osiyo hamkorligi (MOH) tashkilotini tuzish haqida shartnoma imzolandi va milliy muvofiqlashtiruvchi institutlar tashkil etildi.

MOHni tashkil etishning asosiy maqsadi qatnashuvchi mamlakatlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda suv-energetika resurslaridan va suv xo'jaligi ob'ektlaridan ratsional foydalanish; transport tizimining umummintaqaviy infratuzilmasini barpo etish; ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo-iqtisodiy hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish; gumanitar sohada va ekologik muammolarni hal etishda o'zaro hamkorlik; mintaq xavfsizligini mustaxkamlashda hamkorlikni kuchaytirishdan iborat. MOH tashkiloti doirasida Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki (MOHTB) tashkil etilgan¹. 2006 yil yanvar oyidan MOHning Yevroaziya tashkilotiga transfarmatsiya jarayoni boshlandi. O'zbekiston 2006 yil yanvar oyidan Yevroaziya iqtisodiy tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi.

O'rta Osiyo – Osiyo qit'asining bir bo'lagi, g'arbda Kaspiy dengizidan, sharqda Xitoy bilan bo'lgan chegaragacha va shimolda Orol-Irtish suvayirg'ichidan janubda Eron va Afg'oniston chegarasigacha davom etadi. O'rta Osiyo hududi o'rta asrlarda Movaraunnahr, XIX

¹ («O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» 5-jild. Toshkent, 2003 y. 147 bet).

asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida (1924 yilda milliy davlat chegarasi o'rnatilishiga qadar) Turkiston deb atalgan. Keyinchalik O'rta Osiyo (Markaziy Osiyodan farq qilishi uchun) deb ataladigan bo'ldi. CHet el adabiyotlarida odatda «O'rta Osiyo» va «Markaziy Osiyo» tushunchalari bir ma'noda ishlatiladi.

CHorizm yillarida «O'rta Osiyo» deyilganda, Orol dengizining shimoliy nuqtasidan to Balxash ko'lining shimoliy nuqtasigacha o'tkazilgan to'g'ri chiziqdan quyida, Eron, Afg'oniston, Xitoy va Kaspiy dengizi chegaralariga qadar bo'lgan oraliqda joylashgan hudud tushunilgan. Bu hududning yana bir nomi Turkiston edi. SHo'ro yillarida bu tushunchalar bir oz o'zgardi, chunki 1924 yildagi milliy davlat chegaralanishi natijasida sobiq «O'rta Osiyo»ning talay qismi Qozog'iston tarkibiga kirdi. Qozog'istonning chegaralari esa SHimoli-SHarqda O'rta Sibirga, G'arbda Ural tog'lariga va Volga daryosining etaklarigacha cho'zilab borardi, ya'ni qisman Yevropa qit'asiga mansub edi. SHu boisdan Qozog'istonni «O'rta Osiyo» tushunchasi bilan qamrab olish bahsli bo'lgan. Bunday sharoitda «O'rta Osiyo» deganda Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, O'zbekiston va uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston tushunila boshlandi. Rasmiy hujjatlarda va kundalik hayotda «O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston» degan ibora va tushuncha keng o'rin oldi.

Ammo, sobiq ittifoq parchalanib, uning tarkibida bo'lgan Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Qozog'iston mustaqil davlatlarga aylangandan so'ng, tarixi, madaniyati, hududi, ko'p jihatdan tili umumiy bo'lgan bu mamlakatlarni biriktiruvchi, ularni bir-biriga jipslashtiruvchi yangi istiqbolli omillar paydo bo'ldi va «O'rta Osiyo va Qozog'iston» tushunchasi o'rnini «Markaziy Osiyo» tushunchasi egalladi. «O'rta Osiyo» geografik tushuncha, «Markaziy Osiyo» esa siyosiy-geografik tushuncha bo'lib qoldi. Mustaqillik sharofati bilan bu besh davlat o'z muammolarini hal etishda birgalikda harakat qilishlari ma'qul ekanligi ma'lum bo'ldi. SHu munosabat bilan bu besh davlat joylashgan hudud «Markaziy Osiyo» deb atala boshlandi.²

Turon (forscha «turon» - turkiylar degan ma'noni anglatadi) – turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni birlashtiruvchi ijtimoiy, tarixiy-etnik atama. «Turon» atamasi bundan 2500-3000 yillar oldin qo'llanila boshlangan. «Turon» atamasi yonida, u bilan birga, uning ma'nodoshlari sifatida «Turk yurt», «Turon eli», «Turk budun», «Turkiston» atamalari yozma bitiklarda uchraydi va turkiy xalqlarning jahoniy ijtimoiy-etnik birligini ifodalovchi asosiy tushuncha va nom sifatida XX asrgacha yetib kelgan.

Geografiya tarixida ta'riflanishicha, Turonning hududlari Tinch okeanidan O'rta yer dengizidagi Egey-Adriatikagacha, SHimoliy Muz okeanidan Tibet va Himolay tog'larigacha,

² Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug' at. Toshkent. «SHarq» 1998 yil, 228-279 betlar.

SHimoliy Hindistondan Onado'ligacha, ya'ni, hozirgi Turkiyagacha bo'lgan hududlarni, ularda yashovchi turkiy xalqlar Vatanini bildiradi.

Turon atalmish ulkan hududning markaziy qismi geografik jihatdan «Turon pasttekisligi» deb ataladi va asosan O'rta Osiyoning SHimoli-G'arbiy hamda Qozog'istonning Janubi-G'arbini ishg'ol qiladi, G'arbda Kaspiy dengizi, SHimolda Ural tog'i oldigacha, SHarqda Tyan'-SHan etaklarigacha, Janubda Pomir va Kopetdog'gacha etib boradi.³

Turkiston – ona Vatanimizning azaliy mo''tabar nomi 1867-1886 yillardan e'tiboran qo'llanila boshlangan «Turkiston o'lkasi» istilohi ham muayyan ma'noda mazkur ilmiy-tarixiy haqiqatni, chorizmning strategik maqsad, rejaları doirasida bo'lsa-da, aks ettirar edi. SHo'rolar musta'bid tuzumi zo'ravonlik bilan «Turkiston» atamasini geografik, tarixiy-etnik va siyosiy istilohlar tizimidan, amaliy hayot-tarixdan chiqarib tashlashga, unuttirishga urindi. Turkiston - «turkiy xalqlar yashaydigan o'lka, yurt, joy», muqaddas o'choq, qadimgi turkiy bitiklardagi «Turk budun» mazmunini ifodalaydi. Turkiston tarixiy-an'anaviy jihatdan keng ma'noda quyidagi qismlardan iborat: a) Markaziy Turkiston (hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, qisman Tojikiston); b) SHarqiy Turkiston (Ichki Mo'g'iliston, Xitoyning Sintszyan - Uyg'ur Muxtor viloyati, Qoraqurum); v) Janubiy Turkiston (Tog'li Badaxshon, Ko'ksuv, SHimoliy Hindiston – Jammu va Kashmir viloyatlari, SHimoli-SHarqiy Afg'oniston); g) G'arbiy Turkiston (Eronning shimoli, Kavkaz, Xazar-Kaspiy havzasi); d) SHimoliy Turkiston (SHimoliy Qozog'iston, Edil-Bulg'or (Volga) bo'yi, Janubiy Ural tog'larigacha cho'zilib ketgan Turon pasttekisligi, Ob', Enasoy (Enisey), Eluna (Lena) oralig'i, Sabar (Sibir'). Tor ma'noda «Turkiston» deb, asosan Markaziy Turkiston tushuniladi.

O'zbekiston, o'z strategik o'rni iqtisodiy-texnologik va madaniy salohiyati, iqtidori jihatdan, CHingiz Aytmatov iborasiga ko'ra, Turkistonning vorisidir.⁴

2. Qozog'iston Respublikasi

Hududi – 2717,0 ming km², Aholisi – 15,7 mln. kishi (2008 yil, iyul) Poytaxti – Ostona¹, Aholisi – 500,0 ming kishi (2008 y.)

Qozog'iston Respublikasi hududining kattaligi jihatdan MDH mamlakatlari o'rtasida Rossiyadan keyingi o'rinda turdi. G'arbda Kaspiy dengizidan, sharqda Oltoyga qadar 3 ming km va shimolda (Rossiya) va janubga (Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston) 1,8 ming km.dan ortiq cho'ziladi va sharqda XXR bilan chegaradosh.

Iqtisodiy-geografik o'rni:

- Evropa va Osiyo mamlakatlarini bog'lovchi transkontinental temir yul va avtomobil

³ Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. Toshkent. «SHarq» 1998 y.

⁴ Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. Toshkent. «SHarq» 1998 yil, 211-212 betlar.

¹ 1998 yilga qadar Qozog'iston poytaxti Almati shahri bo'lgan.

yo'llari muhim iqtisodiy va geosiyosiy ahamiyatiga ega quvur transportning o'tishi;

- Kaspiy dengizi havzasi mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatlarining kattaligi;
- Volga daryosi orqali Rossiya ichki suv va xalqaro suv yo'llariga (AZOV, Qora va Boltiq dengizlari) chiqish imkoniyatlari;
- Rossiyaning iqtisodiy rivojlangan – Ural, Volga bo'yi va G'arbiy Sibir iqtisodiy rayonlari, Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradoshligi mustahkam iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Rel'efi asosan tekisliklardan iborat bo'lib, G'arbiy Sibir bilan chegarasining janubi-sharqiy qismi, XXR va Qirg'iziston chegaralarida tog'lar mavjud. Keskin kontinental va qurg'oqchil iqlim qaror topgan. Yillik yog'in miqdori shimolda 400 mm.dan janubda 200 mm.ga qadar.

Tog'oldi mintaqalari va mamlakatning janubi-sharqida 500-600 mm yog'in yog'adi. Markaziy, G'arbiy va Janubiy Qozog'istonda qor qoplamining oz bo'lishi tufayli mazkur hududlardan qishki yaylov sifatida foydalaniladi (qo'ychilik va yilqichilik).

Mamlakat shimolidagi keng cho'llarda qora va kashtan tuproqlar tarqalgan bo'lib, dehqonchilik uchun qulay, Janubda esa sarg'ish tuproqlar tarqalgan va sun'iy sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Mamlakatning 40% hududi cho'llardan (G'arbiy va Janubiy Qozog'iston), 30% chala cho'llardan iborat. SHimolda unchalik katta bo'lmagan keng bargli va qarag'ayli o'rmon massivlari, janubda saksovulzorlar tarqalgan.

Qozog'iston suv resurslariga boy emas. Irtish, Ural, Sirdaryo va Ili daryolari yirik daryolar hisoblansada, asosan chekka chegara hududlardan oqadi va Markaziy Qozog'iston daryo to'ri juda kambag'al. Faqat Irtish daryosi transport ahamiyatiga ega. Markaziy va SHimoli-SHarqiy Qozog'iston hududlari aholisi va ishlab chiqarish majmualarini chuchuk suv bilan ta'minlash maqsadida Irtish-Qarag'anda kanali qurilgan. Orol dengizi suvlarining pasayishi bilan bog'liq unga chegaradosh hududlarda, Sirdaryoning quyi qismida murakkab ekologik vaziyat yuzaga kelgan. Balxash, Zaysan va boshqa ko'llari bor. Kaspiy dengizidan qimmatbaho baliqlar (osetr) ovlanadi.

Qozog'iston foydali qazilmalarga juda boy. Yoqilg'i-energetika resurslardan ko'mir (zahirasi 140 mlrd. t., Qarag'anda, Ekibastuz, Maykuben, To'rg'ay havzalarida), neft⁵ (Mang'ishloq va Bo'g'achi yarim orollari, Jetiboy va Uzan havzalari, Emba daryosi rayonida), tabiiy gaz (Ustyurt platosi), temir rudasi (Sokolov, Sorbay), rangli metallar – marganets, mis, qo'rg'oshin, rux, oltin va kumush, vol'fram, molibden, nikel va boshqalar, radiaktiv elementlar

⁵ Xalqaro ekspertlar ma'lumotlariga ko'ra Kaspiy dengizi shel'ef mintaqasi Fors ko'rfazi singari yirik neft zahiralarga ega bo'lishi mumkin.

shuningdek, boksit, fosforit, kaliyli tuzlar, qurilish materiallariga (tsement xom ashyosi asbest va boshq.) ega bo'lib, yirik sanoat majmualarini rivojlantirish imkonini beradi.

Aholisi. Qozog'iston aholisi soni jihatidan MDH davlatlari o'rtasida 4-o'rinda (Rossiya, Ukraina, O'zbekiston) va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinda (O'zbekiston) turadi. Qozog'iston ko'p millatli davlat bo'lib, qozoqlar (42%), ruslar (40%), ukrainlar (6%), nemislar (6%), tatarlar, o'zbeklar, belaruslar, koreyslar, uyg'ur va boshqa millatlardan iborat.

Aholining o'rtacha zichligi har 1 km² hududga 6 kishidan to'g'ri keladi. Тянь-Шан, Jung'oriya Olatovi tog'oldi mintaqalari, mamlakatning shimoliy cho'l rayonlarida aholi bir muncha zich joylashgan. Tug'ilish koeffitsienti 15/1000 va o'lim koeffitsienti 21/1000 va tabiiy o'sish koeffitsienti 1,0 (2008 y.) bo'lib, sezilarli ravishda aholining tabiiy o'sishi qisqarib bormoqda. SHahar aholisi 53% dan iborat. Mamlakatda har birida yuz mingdan ortiq aholi yashaydigan 21 ta shahar bor. Eng yirik shaharlari - Qarag'anda (600 mingdan ortiq aholi), CHimkent (400 ming atrofida), Pavlodar (300 mingdan ortiq), Ust-Kamenogorsk (300 mingdan ortiq aholi yashaydi).

Ho'jaligi. Qozog'iston sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha MDH davlatlari o'rtasida 2-o'rinda turadi (Rossiya va Ukraina). Sanoat ishlab chiqarish tarkibida rangli va qora metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, mashinasozlik yetakchi o'rin tutadi. SHuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Sertarmoq qishloq xo'jaligi shakllangan. Ayni vaqtda davlatning tashqi qarzi ortib bormoqda. 2008 yildan boshlangan moliyaviy inqiroz mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Qozog'iston sanoati tarkibida qora va rangli metallar va yoqilg'i resurslari bir-biriga yaqin va uyg'un joylashganligi qora va rangli metallurgiya sanoatining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratgan. Rangli metallurgiya mahalliy xom ashyo asosida ishlaydi va yetakchi soha hisoblanadi. Rangli metallar qazib chiqarish va qayta ishlash Markaziy va Janubiy Qozog'iston, Rudali Oltoy, shuningdek, Aktyubinsk va Pavlodar viloyatlarida rivojlangan. Markaziy Qozog'iston, Jezqazg'on viloyatida mis sanoati bosh tarmoq bo'lib, yirik Jezqazg'on va Balxash kombinatlari mavjud, Qarsakpay mis eritish zavodida misdan tashqari molibden, qo'rg'oshin, oltin va boshqa kamyob sochma metallar eritiladi. Janubiy Qozog'iston, CHimkent viloyatida xilma-xil polimetall rudalar Achisay va CHimkent qo'rg'oshin zavodida qayta ishlanadi. Rudali Oltoy (SHarqiy Qozog'iston) rangli metallarga boy. Ust-Kamenogorsk va Leninagorsk kombinatlarida – rux, qo'rg'oshin, kumush-titan, magniy va boshqa o'nlab metallar eritiladi. Bu korxonalar energiyani Irtish daryosidagi GESlar va Yermak GRESdan oladi. Pavlodar shahrida glinozyom zavodi Arkalik boksit koni asosida ishlaydi va glinezyomni Tojikiston (Mirzo Tursunzoda shahridagi alyuminiy zavodi), Sibir alyuminiy zavodlarga yuboradi. Bugungi kunda Pavlodar shahrida alyuminiy zavodi qurilmoqda.

Qora metallurgiya sanoati rivojlangan bo'lib, cho'yan, po'lat va prokat eritish bo'yicha MDH doirasida 3-o'rinda turadi (Rossiya, Ukraina). Temir rudasi qazib olish va boyitish Sokolov, Sarbay, Lisakovsk, Kagar tog'-kon boyitish kombinatlarida, Kustanay viloyatidagi kombinatlarda amalga oshiriladi. SHuningdek, Qarag'anda va Temir-Tauda ham metallurgiya kombinatlari mavjud. Ferrosplav ishlab chiqarish Aktyubinsk va Yermak shaharlarida joylashgan. Aktyubinsk viloyatida xromit rudasi qayta ishlanib, MDH mamlakatlariga yetkazib beriladi.

Yoqilg'i sanoati – ko'mir, neft va tabiiy gaz qazib chiqarishdan iborat. Ko'mir qazib chiqarish hajmi bo'yicha MDH mamlakatlari o'rtasida 3-o'rinda turadi (Rossiya va Ukraina). Kokslanuvchi ko'mir Qarag'anda, toshko'mir Ekibastuz havzasida (Pavlodar viloyati) ochiq usulda qazib olinadi (ko'mir qatlami 100 m.). Ekibastuz yoqilg'i-energetika majmuasi shakllangan bo'lib, tarkibiga Yermak GRESi, Ekibastuz GRES-1 va GRES-2 hamda 2 ta yirik GESlar kiradi. Keyingi yillarda To'rg'ay qo'ng'ir ko'mir havzasi o'zlashtirilmoqda. Neft asosan ikkita – Mang'ishloq (Uzen, Jetiboy) va Emba rayonlarida qazib olinadi.

Yirik neftni qayta ishlash zavodlari – Gur'ev, Pavlodar va CHimkent shaharlarida joylashgan. Tabiiy gaz sanoati istiqbolli yo'nalishga ega (Qorag'anak havzasi). Elektroenergetika tizimida issiqlik elektrostantsiyalari (yirik sanoat markazlarida), Irtish daryosida – Ust-Kamenogorsk, Buxtain, Ili daryosida Qapchag'ay GESlari qurilgan. Hozirda eng yirik SHul'bin GES qurilmoqda. Kaspiy dengizi bo'yidagi Aktau shahrida SHEvchenko AESi qurilgan.

Kimyo sanoatida osh tuzi va kaliyli tuzlar, fosfat-tuk qazib chiqarish (Jambul, CHimkent, Aktyubinsk), azot-tuk (Qarag'anda), sulfat kislotasi (CHimkent, Ust-Kamenogorsk, Balxash), farmatsevtika (dorivor o'simliklar va go'sht kombinatlari chiqindilari asosida) rivojlangan.

Mashinasozlik milliy iqtisodiyot ehtiyojlari bilan bog'liq holda mahalliy qora va rangli metallurgiya mahsulotlariga tayanadi. Qarag'anda, Almati va Ust-Kamenogorskda tog'-shaxta sanoati uchun jihozlar ishlab chiqarish, Pavlodarda-traktor, Astana va Petropavlovsk shaharlarida qishloq xo'jaligi mashina va jihozlari ishlab chiqarish korxonalari mavjud.

Qurilish industriyasi tez taraqqiy etmoqda. Qarag'anda, CHimkent, Semipalatinsk, Ust-Kamenogorsk va boshqa shaharlarda tsement zavodlari, qurilish materiallari korxonalari qurilgan.

Engil sanoat korxonalari (to'qimachilik, tikuvchilik, poyabzal va boshq.) Almata, Pavlodar, Qarag'anda, Astana, Jambul, CHimkent, Qizil-O'rda, Ust-Kamenogorsk va boshqa shaharlarda rivojlangan.

Oziq-ovqat sanoatida sut-go'sht, baliq konservalari ishlab chiqarish muhim o'rin tutadi. Yirik go'sht kombinatlari – Semipalatinsk, Aktyubinsk, Pavlodar, Qarag'anda shaharlarida

joylashgan. Almati va Jambul viloyatlarida qand-shakar korxonalari mavjud. Baliqchilik Kaspiy dengizida rivojlangan. Gurʼev – baliq konservalari ishlab chiqarish markazi.

Qishloq xoʻjaligi. Tabiiy sharoit mamlakat shimoli va janubida ixtisoslashgan qishloq xoʻjaligining shakllanishiga olib keldi. SHimoldagi tuproq-iqlim shart-sharoitlari dehqonchilik uchun qulay boʻlib, mamlakatning asosiy don yetishtiruvchi mintaqasidir. Tariq va kungaboqar ham ekiladi. SHuningdek, sabzavot, kartoshka, bogʻdorchilik va uzumchilik rivojlangan. Janubda sugʻorma dehqonchilik rivojlangan boʻlib, asosan paxta, sholi, qand lavlagi, donli ekinlar, bogʻdorchilik va uzumchilik, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari yetishtiriladi. SHoli Sirdaryoning quyi qismlarida, paxta CHimkent viloyati, qand-lavlagi Almati va Jambul viloyatlarida ekiladi.

CHorvachilik qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishidagi bosh tarmoq. Tarmoq tarkibida yirik shoxli hayvonlar (50%), qoʻy-echkilar (35%), yetakchi sohalardir. Yilqichilik, choʻchqachilik, parrandachilik va tuyachilik rivojlangan.

SHimoliy dehqonchilik rayonlari va togʻoldi mintaqalarida qoramolchilik, choʻchqachilik, parrandachilik, Markaziy Qozogʻiston chala choʻllari, Gʻarbiy va Janubiy Qozogʻiston choʻllarida qorakoʻl qoʻychiligi, shuningdek, goʻsht-yogʻ yoʻnalishidagi qoʻychilik tarqalgan.

Transporti. Qozogʻistonda barcha transport turlari – temir yoʻl, avtomobil, quvur va havo transporti rivojlangan. Yuk aylanmasining 95%dan ortigʻi temir yoʻl transporti hissasiga toʻgʻri keladi. Mamlakat hududini 4 ta meridional temir yoʻl magistrallari – Turksib, TransQozogʻiston (Petrovsk-Qaragʻanda-CHu), Orenburg-Toshkent, Qoʻngʻiroʻt-Makat-Astraxan va kenglik yoʻnalishida – Transibir, Oʻrta Sibir va Janubiy Sibir yoʻllari kesib oʻtadi. Ichki aloqalarda avtomobil transporti, daryo transporti (Irtish va Ural) sezilarli oʻrin tutadi. Havo transportining ichki va tashqi aloqalardagi roli ortib bormoqda. Yirik magistral neft va gaz quvurlari tortilgan. Kaspiy-Qora dengiz (Novorossiysk) neft quvuri (uzunligi 1500 km loyiha quvvati yiliga 67 mln t) qurilmoqda. Mamlakat hududidan Muborak-Toshkent-CHimkent-Jambul-Bishkek-Almata va Buxoro-Ural, Oʻrta Osiyo-Markaz magistral gaz quvurlari oʻtgan.

- **Iqtisodiy rayonlari.** Tabiiy sharoiti, resurslar bilan taʼminlanish darajasi va xoʻjalik ixtisoslashuvi hamda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga koʻra SHimoliy, Gʻarbiy, Markaziy, SHarqiy va Janubiy iqtisodiy rayonlarga ajratiladi.

- SHimoliy iqtisodiy rayon – Qozogʻistondagi bozor munosabatlari jadal rivojlanib borayotgan industrial-agrar rayon. SHimoliy rayonga Qozogʻiston hududining 1/3 qismi, ekin maydonlarining 2/3 qismiga yaqini, qoramolning 2/3 qismi va qoʻylarning 1/6 qismi toʻgʻri keladi. Foydali qazilmalarga (toshkoʻmir, temir rudasi, mis, boksit, oltin, asbest va boshq.) boy.

Iqtisodiy-geografik jihatidan Rossiyaning rivojlangan Ural, Kuzbass sanoat rayonlari bilan qo'shniligi muhim o'rin tutdi. Toshko'mir qazib chiqarish (Ekibastuz), rangli metallar, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik) asosiy o'rin tutadi. Mamlakat poytaxti – Ostona, shuningdek, Petropavlovsk, Kustanay, Pavlodar, Ekibastuz va boshqa yirik shaharlari mazkur iqtisodiy rayonning sanoat markazidir.

- G'arbiy iqtisodiy rayon. Tarkibiga Aktyubinsk, Ural'sk va Gur'yev viloyatlari kiradi. Foydali qazilmalarga boy (neft, rangli metallardan xrom va nikel). Mustaqillik yillarida jadal rivojlanib borayotgan rayon. Neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash, mashinasozlik, baliq-konserva sanoati, dehqonchilik (bug'doy, qisman sabzavot va polizchilik), yaylov chorvachiligi (qo'ychilik) rivojlangan. Yirik shaharlari – Aktyubinsk, Ural'sk Gur'yev, Shevchenko va boshq.

- Markaziy iqtisodiy rayon – sanoatlashgan Qarag'anda viloyatini o'z tarkibiga oladi. Ko'mirga nihoyatda boy. Ko'mir qazib chiqarish, qora va rangli metallurgiya, qurilish materiallari, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari rivojlangan. Qishloq xo'jaligida asosan, chorvachilik (sut-go'sht yo'nalishi) va dehqonchilik (bug'doy, zig'ir, kartoshka va boshq.) mahsulotlari yetishtiriladi. Yirik shaharlari – Qarag'anda, Temirtov, Balxash, Qarsaqpay, Jezqazg'on va boshq.

- SHarqiy iqtisodiy rayonga Semipalatinsk va SHarqiy Qozog'iston viloyatlari kiradi. Foydali qazilmalarga boy (polimetall rudalar – rux, qo'rg'oshin, mis, kumush, oltin), tsement xom ashyosi, mineral tuzlarga ega. Rangli metallurgiya, kimyo va go'sht sanoati, qishloq xo'jaligida lalmikor dehqonchilik-bug'doy, shahar atrofi xo'jaligi, polizchilik (tarvuz), sut-go'sht yo'nalishidagi chorvachilik rivojlangan. Yirik shaharlari – Semipalatinsk, Ust'-Kamenogorsk, Leninagorsk va boshq.

- Janubiy iqtisodiy rayoni – Almati, CHimkent, Jambul va Qizil O'rda viloyatlarini o'z tarkibiga oladi. Iqtisodiy rayon Qozog'iston Respublikasida sug'orma dehqonchilik (paxtachilik, sholichilik, donli ekinlar, qand lavlagi, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot-poliz ekinlari yetishtirish), chorvachilik (qoramolchilik, qo'y-echkichilik), ipakchilik rivojlangan rayondir. Foydali qazilmalarga boy (polimetall rudalari va fosforit). Yirik sanoat majmualari jumladan, tog'-kon sanoati, rangli metallurgiya, kimyo sanoati jadal rivojlanib bormoqda. Yirik shaharlari – Almati, CHimkent, Jambul, Qizil O'rda va boshq.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Mustaqillik yillarida Qozog'iston dunyoning 100 ga yaqin mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi va iqtisodiy aloqalar olib bormoqda. Eksportda neft, tabiiy gaz, qora va rangli metallar, fosforit, bug'doy, importda esa sanoat va transport vositalari, qurilish jihozlari, yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari yetakchi o'rin tutadi. Keyingi yillarda xorij investitsiyalari ishtirokida yer osti resurslarini qidirish va ulardan

foydalanish (neft, rangli metall), qo'shma korxonalar tashkil qilish kengayib bormoqda. Asosiy savdo sherigi Rossiya, shuningdek, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va qo'shni davlatlardir.

3. Qirg'iziston Respublikasi

Maydoni – 197 500 km², aholisi – 5,2 mln. kishi (2008 yil, iyul), Poytaxti – Bishkek, aholisi – 640,0 ming kishi (2008 y.)

Qirg'iziston shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, janubi-g'arbda O'zbekiston, janubi-sharqda Xitoy va janubda Tojikiston bilan chegaralanadi. Davlat boshlig'i Prezident. Ijro etuvchi hokimiyat Prezident va hukumat (Prem'yer ministr), qonun chiqaruvchi oliy organ bir palatali parlament. Ma'muriy hududiy jihatdan 6 ta viloyatga bo'linadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Qirg'iziston Respublikasi tog'li mamlakat. Hududining 30% dan ortig'ini dengiz sathidan 3000 m.dan yuqori bo'lgan tog'lar (Tyang-SHan va Pomir-Oloy tog' tizmalari) egallaydi. Eng yuqori nuqtasi G'alaba cho'qqisi (7439 m). Tog' tizmalari tog'lar orasida joylashgan vodiy va kotlovinalar (shimolda CHuy va Talas, Janubi-G'arbda Farg'ona va Janubda Oloy) bilan ajralib turadi. Tog'larda muzliklar ko'p bo'lib, tog'daryolari to'yinadigan asosiy manbadir. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 7% idan iborat bo'lib o'tloq va yaylovlar 42%ni tashkil qiladi.

Iqlimi keskin kontinental va quruq. Yanvarning o'rtacha harorati – 15° (tog'larda – 28° va undan ortiq), iyulning o'rtacha harorati +15 +27° (eng yuqori harorat +40°ga qadar), yillik yog'in miqdori 300 mm atrofida. Eng yirik daryosi Norin – gidroenergo resurs zahiralarga boyligi bilan ajralib turadi (MDH mamlakatlari orasida Rossiya va Tojikistondan so'ng 3-o'rinda). Eng yirik ko'li –Issiq-Ko'l mamlakat iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. Kurort xo'jaligi va turizm rivojlangan.

Tuproqlari. CHo'l va chala cho'llarda bo'z tuproqlar, daryo qayirlarida allyuvial, tog'larda qo'ng'ir, kashtan, qora va boshqa tuproqlar tarqalgan. O'simlik olamiga boy. O'simliklarning 3,5 mingdan ortiq turi bor. O'rmonlar mamlakat hududining 3,5%ni egallagan. Mevazor, yong'oqzor o'rmonlar 265 ming ga.dan iborat. Hayvonot dunyosi nihoyatda xilma-xil. Issiqko'l va Sarichelak qo'riqxonalarini tashkillangan. Tog' alpini (G'alaba, Lenin cho'qqilari) rivojlangan. Mamlakat hududida foydali qazilmalar ko'p. Mamlakat shimolida polimetall rudalar, Oloy tizmalarida sur'ma va simob, vol'fram, oltin, qalayi va boshqa metallar, toshko'mir, uran rudalari mavjud. Bugungi kunda g'arb mamlakatlari firmalari ishtirokida yangi foydali qazilmalarni qidirib topish va foydalanish sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Aholisi. Qirg'iziston ko'p millatli davlat bo'lib, 70 dan ortiq turli millat vakillari yashaydi. Aholining 52% dan ortig'i qirg'izlar, 20% ruslar, 12% o'zbeklar, 3,1% ukrainlar, 2,4% nemislar va tatarlar shuningdek, qozoqlar, tojiklar va boshqa millatlardan iborat. Tabiiy o'sish

sur'atlari yuqori, 2008 yil mamlakatda tabiiy o'sish koeffitsenti 1,6, o'lim koeffitsenti 7/1000 va tug'ilish koeffitsenti 24/1000 kishidan iborat bo'lgan. SHahar aholisi mamlakat aholisining 35% tashkil qiladi. Aholining o'rtacha zichligi har bir km² ga 26 kishidan iborat. 70% aholi vodiya va dengiz sathidan 1500 m balandliklargacha bo'lgan hududlarda yashaydi. Aholi Issiqko'l atrofi, Bishkek va Farg'ona vodiysida zich joylashgan. Katta hududni egallagan tog'larda aholi juda siyrak yoki umuman yashamaydi. Mehnatga yaroqli aholining 38% qishloq xo'jaligida, 21% sanoat va qurilishda band. Ishsizlik xarakterli. Yirik shaharlari – Bishkek, O'sh, Jalolobod, To'qmoq va boshq.

Xo'jaligi. Qirg'iziston agrar-industrial davlat. Iqtisodiyotda xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga o'tish jarayoni ketmoqda. Mamlakatda iqtisodiy islohotlar va davlat mulkini xususiyalashtirish amalga oshirilmoqda. Ayni paytda, mamlakat tashqi qarzi ortib bormoqda. Asosan Rossiya Jahon moliyaviy inqirozi ijtimoiy-iqtisodiy muammolari keskinlashuviga olib kelmoqda. Qirg'iziston O'rta Osiyo mintaqasida sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda (O'zbekistondan so'ng) turadi. Sanoatda rangli metallar qazib chiqarish va uni boyitish, elektroenergetika yetakchi tarmoqlar. SHuningdek, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish materiallari sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligida yetakchi soha chorvachilik bo'lib, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymatining 55% ini beradi. CHorvachilikda qo'ychilik (mayin va yarim mayin jun beruvchi qo'ychilik), qoramolchilik, yilqichilik (qazi va qimiz uchun) echkichilik, parrandachilik, asalarichilik va pillachilik, shuningdek, darrandachilik (mo'yna uchun) tarmoqlari mavjud. CHorvachilik mahsulotlari qiymatining 60% qo'ychilikka to'g'ri keladi. Qo'ychilik katta yaylovlar va o'tloqlarda, sut-go'sht chorvachiligi CHuy-Talas, Farg'ona vodiysida, yilqichilik tog'li hududlarda, parrandachilik shahar atrofida, asalarichilik o'rmon xo'jaliklarida, pillachilik Farg'ona vodiysida rivojlangan.

Dehqonchilikda yem-xashak ekinlari, texnika ekinlaridan – paxta (Farg'ona vodiysi), tamaki (Farg'ona vodiysi va Talasda), qand lavlagi sanoat asosida (CHuy vodiysida), dorivor o'simliklar (ko'knori), bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot va polizchilik, donli ekinlar (bug'doy, roj, arpa) kartoshkachilik tarqalgan. Farg'ona vodiysida sug'orish kanallari barpo etilgan.

Sanoati. Mamlakat rangli metallurgiya sanoati – polimetall rudalari qazib olish va uni boyitish, simob, sur'ma, qo'rg'oshin, rux boshqa metallar eritish tizimidan iborat. Dunyoda etalon – sof sur'ma ishlab chiqarish bilan shuhrat qozongan, yirik rangli metallurgiya korxonalari (Qadamjoy va boshq.) mavjud. Xorij firmalari bilan hamjihatlikda qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Elektro-energetika tizimi - IES va GESlarni o'z ichiga oladi.

Norin daryosiga qurilgan To'xtag'ul, Norin, Qurpsay GESlari, Bishkek IES va boshqalar, shuningdek istiqbolda Norin daryosi gidroresurslarini o'zlashtirish mamlakatni elektr energiya bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mashinasozlik asosan qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati ehtiyojlarini qondiradi. Stanoklar, elektron hisoblash mashinalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Avtomobil sanoati (yig'uv korxonasi), priborsozlik rivojlanmoqda. Markazlari Bishkek, O'sh va boshqa shaharlardir.

Qurilish materiallari sanoati o'tga chidamli g'isht, tsement, yig'ma temir-betonlar, marmar, granit va boshqa mahsulotlarni chiqaradi.

Engil sanoatda ip-gazlama va shoyi gazlama, gilam, jun gazlamalar, trikotaj, tikuvchilik va teri-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Oziq-ovqat sanoati go'sht-sut, un-yorma, shakar-qand, konditer mahsulotlari, aroqlik, konserva, tamaki va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalardan iborat. Oziq-ovqat sanoati korxonalari xom ashyo va iste'mol mintaqalarida joylashgan.

Transporti. Qirg'izistonda zamonaviy transportning barcha turlari (dengiz transportidan tashqari) rivojlanganligiga qaramay ichki aloqalarda avtomobil transporti asosiy o'rin tutadi va uning hissasiga tashilayotgan yukning 90% to'g'ri keladi. Avtomobil yo'llarining uzunligi 30,3 ming km (22,6 ming km qattiq qoplamga ega). Bishkek-O'sh avtomagistral shosse (592 km) yo'li katta ahamiyatga ega. SHuningdek, Toshkent-Bishkek-Almati magistral yo'li davlatlararo iqtisodiy aloqalarni ta'minlaydi. Temir yo'llarning uzunligi 370 km. Jambul-Bishkek-Baliqchi temir yo'li Qirg'izistonni MDH davlatlari bilan bog'laydi. Qorasuv-Xitoy temir yo'li barpo qilinmoqda. Quvur transporti orqali O'zbekistondan tabiiy gaz oladi. Issiqko'lda kemachilik rivojlangan. Havo transporti ichki va tashqi yo'lovchi tashishda muhim o'rin tutadi. Bishkek va O'sh shaharlarida xalqaro aeroportlar barpo qilingan.

Iqtisodiy rayonlari. Qirg'iziston – CHuy vodiysi, Issiqko'lbo'yi, Ichki Qirg'iziston va Janubiy iqtisodiy rayonlariga bo'linadi.

- CHuy vodiysi Qirg'izistonda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan rayon. Mamlakat poytaxti – Bishkek (sobiq Frunze) yirik industrial markaz. Iqtisodiy rayon bozor munosabatlari jadal rivojlanib borayotganligi bilan ajralib turadi. Mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati (shakar zavodlari), qishloq xo'jaligida qand lavlagi, donli ekinlar, bog'dorchilik va uzumchilik, sabzavot va kartoshkachilik rivojlangan. Yirik shaharlari – Bishkek, Qorabolta, Kant, SHopokov, To'qmoq va boshq.

- Issiqko'lbo'yi iqtisodiy rayoni – muzlamaydigan Issiqko'lbo'yi atrofida joylashgan. Foydali qazilmalarga boy. Yaylov chorvachiligi, donchilik, baliqchilik, dorivor o'simliklar (ko'knori) yetishtiriladi, oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Mustaqillik yillarida xalqaro ahamiyatga

molik turizm-kurort xo'jaligi tez taraqqiy etmoqda. Yirik shaharlari – Qorako'l, Baliqchi, Qajisoy, Oqbuloq va boshq.

- Ichki Qirg'iziston iqtisodiy rayoni tog'lar orasidagi kotlovinalarini (Norin viloyati) o'z tarkibiga oladi, tog'yaylovlari, foydali qazilmalar va gidroenergo resurslarga juda boy. Yirik shahri – Norin bo'lib, oziq-ovqat sanoati korxonalari mavjud.

- Janubiy iqtisodiy rayon – mamlakatning nisbatan iqtisodiy-ijtimoiy rivojlangan hududi. Foydali qazilmalarga juda boy. Sug'orma dehqonchilik – paxtachilik, sholichilik, donli ekinlar, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot-poliz-kartoshkachilik, tamakichilik, chorvachilikda - qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, qo'toschilik, ipakchilik rivojlangan. Tog' – kon sanoati, rangli metallurgiya, kimyo, yengil va oziq-ovqat, qurilish, industriyasi rivojlanib bormoqda. Turizm va kurort xo'jaligini rivojlantirishning istiqbolli imkoniyatlari kattadir. Yirik shaharlari – O'sh (mamlakatning janubiy poytaxti), Jalolobod, Botkent, Moylisoy va boshq.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Eksportga rangli metallar, paxta tolasi, jun, tamaki kabi mahsulotlar chiqaradi va importda sanoat jihozlari, transport vositalari, iste'mol tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlari oladi. Dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatgan. Asosiy savdo sheriklari Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va boshqa MDH mamlakatlaridir. O'zbekiston bilan savdo-sotiq va qo'shniçilik munosabatlari yildan-yilga kengayib, rivojlanib bormoqda.

4. Tojikiston Respublikasi

Maydoni – 143 ming km², aholisi – 7,3 mln. kishi (2008 yil, iyul), poytaxti – Dushanbe, aholisi – 520,0 ming kishi (2008 y.)

Tojikiston g'arb, shimoli-g'arb va shimoli-sharqda O'zbekiston va Qirg'iziston, sharqda Xitoy va janubda Afg'oniston bilan chegaralanadi. Tojikiston – unitar, demokratik ijtimoiy-huquqiy davlat. Davlat boshlig' i Prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ - Majlisi Oliy, ijro etuvchi organ - Vazirlar Kengashi (Hukumat). Ma'muriy jihatdan tog'li Badaxshon muxtor viloyati, 2 ta viloyat va 45 tumanga bo'linadi.

Tabiiy sharoit va resurslari. Rel'efi murakkab bo'lib, 90% hudud Pomir tog' tizimidagi tog'liklardan iborat. Deyarli 50% hudud dengiz sathidan 3000 m balandlikda joylashgan. Tog'lar orasidagi vodiylar (Hisor, Vaxsh, Yovon, Quyi Kofirnihon, Surxob, Qizilsuv), Yaxsuv, Zarafshon va SHimoliy Tojikiston (Farg'ona) va boshqa tog' oldi tekisliklari (dengiz sathidan 1000 m gacha bo'lgan) mamlakat hududining 10%ini egallaydi va katta xo'jalik ahamiyatiga ega. Iqlim keskin kontinental va quruq. Yanvar oyining o'rtacha harorati vodiy va tog' yon bag'irlarida +2°dan -2°, iyulning harorati Pomirda +10° va eng yuqori harorat +48°.

O'rtacha yog'in miqdori 200-300 mm (Hisor tog' lari shimoliy yon bag'irlarida 1600 mm). Tuproqlari asosan bo'z va tog' jigarrang tuproqlaridan iborat. Farg'ona va Vaxsh vodiylaridagi bo'z tuproqlar unumdorligi bilan ajralib turadi. Daryolarga boy. Uzunligi 10 km dan ortiq 947 ta daryo bo'lib, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari havzalariga mansub. Daryolari asosan muzliklardan to'yinadi, sug'orma dehqonchilikda keng foydalanadi va gidroenergiya resurslarga boyligi jihatdan MDH mamlakatlari orasida Rossiyadan so'ng 2-o'rinda turadi. Ayniqsa, Vaxsh daryosining gidroenergoresurs zahirasi katta. O'simlik (4,5 mingdan turdan ortiq) va hayvonot olami nihoyatda xilma-xil.

Foydali qazilmalarga boy bo'lsada, yoqilg'i resurslari (neft, tabiiy gaz va ko'mir) kam. Rangli, qimmatbaho metallar, radiaktiv elementlar – uran, qurilish materiallari (tsement xom ashyosi, marmar), osh tuzining katta zahiralar mavjud, mineral buloqlarga boy. Ayniqsa Garmchashma bulog' i, «Zumrad» (Isfara), Obigarm, Xo'jaobigarm, Qorator, Havotor va boshqalar mashhur.

Tabiatni qo'riqlash va saqlash maqsadlarida qo'riqxona va zakazniklar, botanik bog'lar, tog'-botanika va biostantsiyalar (Polvonto'qay, Romit, Dashtijum va boshq.) tashkillangan.

Aholisi. Tojikiston ko'pmillatli mamlakat, aholining 59% tojiklar, 23% o'zbeklar, 4,5% ruslar, shuningdek, qirg'izlar, tatarlar, qozoqlar, ukrainlar, turkmanlar va boshqa millat vakillaridan iborat. XX asr oxiridan murakkab siyosiy vaziyat rusiyazon aholining Rossiyaga ko'chib ketishiga ta'sir ko'rsatdi. Tabiiy o'sish sur'atlari yuqori. Tug'ilish koeffitsienti 27/1000 va o'lim koeffitsienti 5/1000, tabiiy o'sish koeffitsienti 2,2/1000. SHahar aholisi mamlakat aholisining 26% ni tashkil qiladi. Yirik shaharlari – Dushanbe, Xo'jand, Qo'rg'ontepa, Ustirushona, Ko'lob, Xorug'. Aholining o'rtacha zichligi har bir km² ga 51 kishi. Ammo, aholining asosiy qismi (80%) tog'lar oralig' idagi vodiylarda (Vaxsh, Hisor, Farg'ona, Zarafshon) yashaydi. Tog'li hududlar ayniqsa, Tog'li Badaxshon muxtor viloyatida (Pomir) aholi juda siyrak joylashgan.

Xo'jaligi. Tojikiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi soha. Sanoatda tog'-kon, yengil va oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi. SHuningdek, mashinasozlik korxonalari va yirik gidroelektrostantsiyalar barpo qilingan. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligi 25%, sanoat 35% va xizmat ko'rsatish sohalari 40% ni tashkil qiladi. 2008 yildan boshlangan jahon moliyaviy inqirozi mamlakat iqtisodiyotiga kuchli sur'atda ta'sir etmoqda.

Qishloq xo'jaligi. Mamlakatda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 3,2 mln. ga. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy tarmoq – dehqonchilik bo'lib, jami qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymatining 65% ni beradi. Dehqonchilikda paxtachilik (MDH mamlakatlari o'rtasida O'zbekistondan so'ng 2-o'rinda), bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot-kartoshka, polizchilik, donli ekinlar (g'alla va sholi), yem-xashak ekinlari, tamakichilik, gulchilik rivojlangan.

CHorvachilikda qoramolchilik (vodiylarda), qo'ychilik (qorako'l va go'sht-yog' yo'nalishi), parrandachilik, asalarichilik, Pomirda qo'toschilik tarqalgan. Vodiylarda aholi pillachilik bilan ham shug'ullanadi.

Sanoati. Tog'-kon sanoati rangli va kamyob metallarni qazib olish va boyitishdan iborat. Qo'rg'oshin-rux, vol'fram, molibden va boshqa kon boyitish kombinatlari bor. Rangli va kamyob metall kontsentratlari yaqin xorijiy mamlakatlar kombinatlariga jo'natiladi. Alyuminiy sanoati Tojikiston iqtisodiyotida yangi soha bo'lib, 1975 yil Tursunzoda shahrida arzon Nurek GES elektr energiyasi va glinozyom (Qozog'istondan keltiriladigan alyuminiy tuprog' i) asosida barpo etilgan.

Elektroenergetika sanoati issiqlik va gidroelektrostantsiyalar tizimidan iborat. Markaziy Osiyodagi eng yirik Nurek, Rog' un va boshqa GESlar barpo qilingan. Uning asosiy iste'molchilari Tojik alyuminiy zavodi va Yovan elektrokimyo kombinatlaridir. Yiliga 17 mlrd. kVt/s.dan ortiq elektr energiyasi hosil qilinadi.

Engil sanoat – paxta tozalash, ip-gazlama, shoyi gazlama, tikuvchilik, gilam to'qish kabi tarmoqlardan iborat. Oziq-ovqat sanoati asosan yog' -moy, meva va sabzavot konservalari, quruq meva, vino, un-yorma, qandolatchilik, makaron va boshqa korxonalardan iborat bo'lib, mahalliy xom-ashyo asosida ishlaydi. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash korxonalari, to'qimachilik stanoklari, qishloq xo'jaligi texnikasi, metall qiruvchi stanoklar, transformatorlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. Qurilish materiallari va qurilish industriyasi rivojlanib bormoqda.

Transporti. Rel'ef sharoitiga ko'ra avtomobil transporti iqtisodiyotda yetakchi o'rin tutadi. Avtomobil yo'llarining uzunligi 29,9 ming km bo'lib, uning hissasiga mamlakat ichki yuk aylanmasining 90% to'g'ri keladi. Temir yo'llarining uzunligi 490 km. Asosiy temir yo'l liniyalari – Termiz-Dushanbe va Xo'jand-Qo'rg'ontepa-Yovan. Gaz quvurlari tortilgan. Havo transporti rivojlangan. Dushanbe va Xo'jand shaharlarida xalqaro aeroportlar barpo etilgan. Ichki va tashqi aloqalar yo'lga qo'yilgan.

Iqtisodiy rayonlari. Tabiiy xo'jalik ixtisoslashuviga ko'ra 1) SHimoliy Tojikiston (So'g'd), 2) Janubi-G'arbiy va 3) Tog'li Badaxshon iqtisodiy rayoniga bo'linadi.

1. SHimoliy Tojikiston yoki So'g'd iqtisodiy rayoni – garchi So'g'd viloyatini o'z tarkibiga olsada, bir-biridan ajralgan ikkita SHimoliy Farg'ona (Farg'ona vodiysi) va Zarafshon (Zarafshon vodiysi) kichik iqtisodiy rayonlariga bo'linadi,

- SHimoliy Farg'ona kichik iqtisodiy rayonida – sug'orma dehqonchilik (paxtachilik, bog'dorchilik-uzumchilik, sabzavot-polizlik), chorvachilik, (qoramolchilik va qo'ychilik), ipakchilik, tog'-kon sanoati (qo'rg'oshin, rux, neft, ko'mir, osh tuzi va boshq.), qisman mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Iqtisodiy markazlar – Xo'jand

(shimoliy poytaxt), Konibodom, Neftobod, Isfara va boshq.

- Zarafshon kichik iqtisodiy rayoniga – So'g'd viloyatining Zarafshon vodiysida joylashgan hududlari kiradi. Iqtisodiy rayonda qishloq xo'jaligi, ayniqsa, tamakichilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va dorivor o'simliklar yetishtirish, chorvachilik (qoramolchilik, qo'ychilik, asalarichilik), pillachilik keng tarqalgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati (tamaki-fermentatsiya), oziq-ovqat sanoati korxonalari mavjud. Iqtisodiy markazi – Panjkent.

2. Janubi-G'arbiy iqtisodiy rayon – mamlakatdagi bosh iqtisodiy hudud. Mamlakat poytaxti – Dushanbe va Xatlon viloyatlari kiradi. Rangli metallurgiya (alyuminiy), yengil, oziq-ovqat sanoati va mashinasozlik korxonalari bor. Mamlakat aholisining 50% ga yaqini yashaydi. Qishloq xo'jaligida – paxtachilik (ingichka tolali), donli ekinlar, sabzavot-poliz-kartoshkachilik, gulchilik, chorvachilikda – qoramolchilik, qo'ychilik, asalarichilik, parrandachilik, pillachilik rivojlangan. Hidroresurslarga (Vaxsh) boy bo'lib, yirik GES kaskadlari (Norak, Rog'un va boshq.) barpo etilgan. Janubiy Tojikiston hududiy-ishlab chiqarish majmuasi muhim o'rin tutadi. Energotalab ishlab chiqarish (Tursunzoda shahridagi alyuminiy zavodi, Yovon shahridagi xlor, elektrokimy, soda, Vaxsh azot-tuk zavodlari va qurilish industriyasi) asosiy o'rin tutadi (shuni alohida ta'kidlash lozimki, Tursunzoda shahridagi alyuminiy zavodi faoliyati O'zbekistonning takrorlanmas tabiatiga ega Sariosiyo tumani, uning aholisi salomatligiga juda katta zarar yetkazib, murakkab ekologik vaziyatni yuzaga keltiradi). Iqtisodiy rayonda mamlakat poytaxti Dushanbe, shuningdek, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Tursunzoda va boshqa shaharlar bor.

3. Tog'li Badaxshon yoki Pomir iqtisodiy rayoni – ma'muriy jihatdan Tog'li Badaxshon avtonom viloyatini o'z tarkibiga oladi. Iqtisodiy-geografik jihatdan noyob o'lka bo'lib, murakkab yuqori tog' mintaqasida joylashgan. Mamlakat hududining 43% va aholining 4% to'g'ri keladi. Asosan, chorvachilik va tor daryo vodiylarida dehqonchilik rivojlangan. Pomir tog'larining yuqori sharqiy qismida tog' chorvachiligi – qo'toschilik tarqalgan. Ma'muriy markaz – Xorug'.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Dunyoning 70 ga yaqin davlatlari bilan savdo-sotiq olib boradi. Eksportga alyuminiy, paxta, elektr energiyasi, noyob metall va qimmatbaho toshlar, rangli metall kantsentratlari, ho'l va quruq mevalar, gul, sabzavot, teri, jun chiqaradi. Importda xilma-xil iste'mol mollari, oziq-ovqat, mahsulotlari, sanoat jihozlari, transport vositalari oladi. Asosiy savdo sheriklari MDH mamlakatlari (jumladan, O'zbekiston bilan aloqalari kengayib bormoqda), Afg'oniston va Eron, Xitoy hamda boshqa mamlakatlardir.

5. Turkmaniston Respublikasi

Maydoni – 488 ming km², aholisi – 5,0 mln. kishi (2008 yil, iyul), poytaxti – Ashxobod, aholisi – 420,0 ming kishi (2008 y.)

Turkmaniston O'rta Osiyoning janubi-g'arbida joylashgan bo'lib, janubda Eron va Afg'oniston, shimol va sharqda O'zbekiston, shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan chegaralanadi va g'arbda Kaspiy dengizi suvlari uning qirg'oqlarini yuvib turadi.

Turkmaniston betaraf davlat (1995 y. 12 dekabr). Davlat boshlig'i Prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – Majlis (parlament), ijro etuvchi organ Vazirlar Mahkamasi (hukumat). Ma'muriy jihatdan 5 ta viloyat va ertanlarga (tuman) bo'linadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Rel'efi asosan tekisliklardan iborat bo'lib, 4/5 qismi Turon tekisligida (Qoraqum cho'li), Janubda Kapetdog' tog'lari (eng baland nuqtasi Rizo cho'qqisi, 2949m), janubi-sharqida Hisor tizmasining Ko'hitang tog'i (3139m) joylashgan.

Iqlimi keskin kontinental, qurg'oqchil. Yanvarning o'rtacha harorati -4-5°, eng yuqori harorati 49,9°ni tashkil etadi. Yillik yog'in miqdori 100 mm atrofida, faqat Kopetdog' tog' oldi mintaqasida 300 mm atrofida yog'in tushadi. Mamlakat hududining 80% da doimiy oqar suvlar yo'q. Eng yirik va katta daryo Amudaryo, shuningdek, Murg'ob, Tajan, Atrek daryolari bor. Amudaryo suvi 900 km.lik Qoraqum kanalida Bahorodengacha boradi va Turkmaniston iqtisodiy hayotida juda katta o'rin tutadi. Tajan, Murg'ob va Amudaryo vodiylarida sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 1%dan ko'prog'ini tashkil qiladi. Asosan bo'z tuproqlar tarqalgan. Badxiz, Repetek, Krasnovodsk va boshqa qo'riqxonalar tashkillangan.

Foydali qazilmalarga boy. Yirik neft zahiralari mamlakat g'arbida - CHEleken, Nebit-Dog', Qum-Dog' va Okarsmdan, tabiiy gaz zahiralari - Markaziy Qoraqum hamda janubda Agak, SHadlik, May va boshqa hududlarda joylashgan. Tabiiy gaz zahiralari jihatidan MDH mamlakatlari o'rtasida Rossiyadan keyin 2-o'rinda turadi. SHuningdek, ko'mir, mirabalit, oltingugurt, qora va rangli metallar, mis, alyuminiy, simob, molibden, mineral tuzlar, yod, brom, qurilish materiallari (shisha, tsement xom ashyosi) mavjud. Mineral buloqlarga boy.

Aholisi. Turkmaniston ko'p millatli davlat. Mamlakat aholisining 68% turkmanlar, 13% ruslar, 8,5% o'zbeklar, 3% qozoqlar va boshqa millat vakillaridan iborat (tatar, ukrain, arman, ozarbayjon va boshq.). Aholining tabiiy o'sishi bir muncha yuqori. Tug'ilish koeffitsienti 19/1000 va o'lim koeffitsienti 6/1000, tabiiy o'sish koeffitsienti 1,7/1000 kishidan iborat. Aholining o'rtacha zichligi har bir km²ga 11 kishi bo'lib, MDH orasida eng past ko'rsatkichni egallaydi. Aholi asosan daryo vodiylarida va Kapetdog' tog'oldi mintaqasida bir muncha zich joylashgan. SHahar aholisi mamlakat aholisining 44%ni tashkil qiladi. Yirik shaharlari – Ashxobod, Turkmanobod, Toshhovuz, Mari, Turkmanboshi, CHorjo'y.

Xo'jaligi. Mamlakatning asosiy xo'jalik ixtisoslashuvi – neft va tabiiy gaz qazib chiqarish va uni qayta ishlash, tabiiy-kimyoviy xom-ashyolar, ingichka tolali paxta, pilla va qorako'l yetishtirish bilan shug'ullanadi. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda sanoat 50%, qishloq xo'jaligi 18% va xizmat ko'rsatish sohalari 32% tashkil qiladi. Jahon iqtisodiyotiga nihoyatda bo'sh integratsiyalashgan.

Sanoati. Sanoatda yetakchi tarmoqlar gaz, neft, elektroenergetika, kimyo, yengil va oziq-ovqat, qurilish materiallari sanoatidir. Gaz sanoati mamlakat yoqilg'i-energetika majmuasidagi bosh tarmoq. Tabiiy gaz zahiralari va uni qazib olish bo'yicha MDH o'rtasida 2-o'rinda (Rossiyadan so'ng) turadi. Asosiy gaz havzalari – SHadlik, May, Gazo'choq, Naip, Gugurddog' va boshqalar. Turkmaniston Ukraina va Kavkazorti davlatlariga tabiiy gaz eksport qiladi. Neft sanoati mamlakat g'arbida rivojlangan. Nebitdog' – yirik neft qazib chiqaruvchi rayon va Turkmanboshi shahri neftni qayta ishlovchi sanoat rivojlangan shahardir. Qazib olingan neftning bir qismi O'zbekistonda qayta ishlanadi. Elektroenergetika tabiiy gaz asosida ishlaydigan IESlardan iborat. Yirik IESlar Turkmanboshi, Nebitdog', Turkmanobod, Mari, Gugurddog'da shuningdek Buzmayinda GES qurilgan. Yiliga 130 mlrd. kVt/s dan ortiq elektr energiyasi hosil qilinadi.

Kimyo sanoati – natriy sulfat, yod, brom, oltinguturt, mineral o'g'itlar (CHorjo'y shahrida Qozog'iston fosfati asosida ishlaydigan zavod qurilgan), ftorli alyuminiy va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash korxonalari – teplovoz va avtomobil ta'mirlash, markazdan qochma nasoslar ishlab chiqarish, kultivatorlar, elektrokabel, gaz plitalari, oziq-ovqat sanoati uchun jihozlar ishlab chiqaradi.

Engil sanoat – paxta, jun, pillani dastlabki qayta ishlash, ip-gazlama, jun va shoyi gazlamalar, gilamchilik, trikotaj, qorako'l oshlash, tikuvchilik korxonalaridan iborat. Poyabzal sanoati - ko'ncilik, poyabzal fabrikalari, oziq-ovqat sanoatida un-yorma, sut va go'shtni qayta ishlash, qandolatchilik, baliq konservalari korxonalari, shuningdek, qurilish, poligrafiya va shisha sanoati korxonalari Ashxobod, CHorjuy, Mari, Turkmanboshi, Toshhovuz va boshqa shaharlarda joylashgan.

Qishloq xo'jaligi. Turkmaniston qishloq xo'jaligining asosini sug'orma dehqonchilik va yaylov chorvachiligi tashkil qiladi. Dehqonchilik yetakchi soha bo'lib, paxta yetishtirish asosiy o'rin tutadi. Tajan va Murg'ob vohalarida ingichka tolali paxta yetishtiriladi. SHuningdek, donli ekinlar, yem-xashak ekinlari, sabzavot-polizchilik, bog'dorchilik va uzumchilik, Atrek daryosi bo'yida subtropik bog'dorchilik (anor, zaytun, anjir, bodom va boshq.) tarqalgan. CHorvachilik keyingi yirik soha bo'lib, qorako'l va mayin junli qo'ychilik, echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik (axaltaka otzotlari), tuyachilik, shuningdek, Turkmanobod, Ashxobod va Mari viloyatlarida pillachilik va baliqchilik rivojlangan.

Transporti. Mamlakatda barcha turdagi transport turlari rivojlangan bo'lsada, asosiy yuk tashish temir yo'l transporti hissasiga to'g'ri keladi. Temir yo'llar uzunligi 2,2 ming km. XIX asrda qurilgan Turkmanboshi-Ashxobod-Mari-CHorjuy-Samarqand va CHorjuy-Toshhovuz-Qo'ng'iro't-Makat hamda mustaqillik yillarida qurilgan, mamlakatni Eron bilan bog'lovchi Ashxobod-Tajan-Mashhad temir yo'llari mavjud. Avtomobil yo'llarining uzunligi 13,6 ming km bo'lib, buning 11,6 ming km qattiq qoplamga ega. Asosiy avtomagistral Turkmanboshi-Ashxobod-CHorjuy shaharlarini birlashtiradi. Mamlakat yuk aylanmasida dengiz va daryo transporti ham sezilarli o'rin tutadi. Turkmanboshi-Boku dengiz paromi bor. Amudaryoda 1000 km va Qoraqum kanalida 500 km dan iborat kema qatnovi yo'lga qo'yilgan. Neft va gaz quvurlari barpo etilgan. Vishka-Turkmanboshi, CHEleken-Turkmanboshi neft quvurlari tortilgan. O'rta Osiyo-Markaz gaz quvurlari orqali Rossiya hududiga, Kavkaz orti davlatlariga va Ukrainaga tabiiy gaz eksport qiladi. Turkman nefti va tabiiy gazini Yevropa davlatlariga eksport qilish loyihalari ishlanmoqda. Havo transporti rivojlangan bo'lib, Ashxobod shahrida xalqaro aeroport barpo etilgan.

Iqtisodiy rayonlari. Tabiiy sharoiti va resurslari, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, xo'jalik ixtisoslashuviga ko'ra 5 ta - G'arbiy, Markaziy, Murg'ob-Tajan, O'rta Amudaryo va SHimoliy iqtisodiy rayonlarga ajratilgan.

- G'arbiy iqtisodiy rayoni - neft va tabiiy gaz qazib chiqarish va uni qayta ishlash, kimyo sanoati xom ashyosi qazib chiqarish, baliqchilik, qo'ychilik va tuyachilik, don xo'jaligi, subtropik mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashgan.

- Markaziy iqtisodiy rayoni tarkibiga mamlakat poytaxti Ashxobod kiradi. Sanoatda mashinasozlik, oziq-ovqat va yengil sanoat tamoqlari, qishloq xo'jaligida donchilik, uzumchilik, sabzovot-polizchilik, chorvachilik rivojlangan.

- Murg'ob-Tajan iqtisodiy rayonida paxtachilik (ingichka tolali), pillachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, chorvachilik, tabiiy gaz va neft qazib chiqarish, energetika, mashinasozlik va kimyo sanoati taraqqiy etmoqda.

- O'rta Amudaryo iqtisodiy rayonida ikkita sanoat rayoni - Gaduran va Ko'hitang tog' -kon sanoati rayoni (oltingugurt, qo'rg' oshin, kaliyli va osh tuzlari qazib olish) va CHorjo'y ishlov beruvchi sanoat rayoni shakllangan. Sug'orma dehqonchilik (paxtachilik, pillachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, polizchilik va chorvachilik) yetakchi o'rinda tutadi.

- SHimoliy iqtisodiy rayon tipik qishloq xo'jaligi rayonidir. Yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Eksportda tabiiy gaz, neft va neft mahsulotlari, paxta tolasi, mineral o'g'itlar, importda mashina va jihozlar, transport vositlari, farmatsevtika mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, don, qand-shakar va boshqa mahsulotlar asosiy o'rin

tutadi. Asosiy tashqi savdo sheriklari – Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Eron va boshqa mamlakatlar.

6. O'zbekiston Respublikasi.

Maydoni – 448,9 ming km², Aholisi – 30,5 mln kishi (2013 yil). Poytaxti – Toshkent, aholisi – 2176,0 ming kishi (2008 y.)

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining markaziy qismida joylashgan. SHimoli-sharqda Qirg'iziston, shimoli-g'arbda Qozog'iston, janubi-g'arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Tojikiston va janubda Afg'oniston (137 km) bilan chegaralanadi. CHegaralarining umumiy uzunligi 6221 km. SHimoldan-janubga 930 km va g'arbdan sharqqa 1425 kmga cho'zilgan. Mamlakat hududining 425400 km² qismi quruqlikdan iborat. O'zbekiston hududining kattaligi jihatdan MDH mamlakatlari o'rtasida 5-o'rinda (Rossiya, Qozog'iston, Ukraina va Turkmaniston), dunyoda 60 ta hududi eng katta davlatlar o'rtasida 55-o'rinda (Rossiya – 1, Qozog'iston – 9, Ukraina – 43, Turkmaniston – 51) turadi. XX asr oxirgi choragida Qozog'iston bilan chegaradosh hududda Orol dengizi bilan bog'liq murakkab ekologik vaziyat yuzaga keldi. Keyingi 30 yilda Orol dengizining sathi qariyb 13 metrga pasaydi va suv qirg'oqlardan 120 km.dan 180 km.ga qadar chekindi.

1991 yil 31 avgustda davlat mustaqilligi e'lon qilingan. Ma'muriy jihatdan 12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (Poytaxti Nukus shahri) bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat boshlig'i – Prezident. Ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Mahkamasi (Bosh Vazir). Qonun chiqaruvchi oliy organ Oliy Majlis ikki palatali (1 yanvar 2005 yildan) bo'lib, quyi palata Qonunchilik palatasi (5 yil muddatga to'g'ridan-to'g'ri yopiq yashirin ovoz berish yo'li bilan deputatlar saylanadi) va yuqori palata – Senatdan (vakillik organlari – har bir viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridan 6 tadan senatorlar saylanadi va Prezident tomonidan 16 kishi tayinlanadi) iborat.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Relʼefi asosan tekislik va adir-tog'liklardan iborat. Mamlakat hududi janubi-sharqdan shimoli-g'arbga cho'zilgan bo'lib, daryolar oqimiga mos yer sathi ham pasayib boradi. Tekisliklar mamlakat hududining 80% ga qadar qismini egallaydi. Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida Turon pastekisligi yastanib yotadi. Turon pastekisligining O'zbekistonga qarashli qismi shimoli-g'arbiy chekkasida Ustyurt platosi, Orol dengizining janubida Amudaryo delʼtasining allyuvial tekisligi va undan janubi-g'arbda Qizilqum cho'li joylashgan. Bu tekislikning katta qismi Qizilqum cho'llaridan (350 ming km²) iborat. Qizilqum cho'lida O'zbekistondagi eng past nuqta (dengiz sathidan 12 m. past) Mingbuloq botig'i bor.

Mamlakatning sharqi va janubi-sharqida yirik tog' tizmalari – Тянь-Шань, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog'lari joylashgan. Hisor tog'ining Qoldirg'a tizmasidagi Hazrati

Sulton cho'qqisi (4683 m.) O'zbekistonning eng baland nuqtasidir. Tog'lar orasidagi vodiylar iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilgan va rivojlangan. CHunonchi, sug'orma dehqonchilik rivojlangan Farg'ona, Zarafshon, Kitob-SHahrisabz, Surxon-SHerobod, CHirchiq-Ohangaron tog'-daryo vodiylarida mamlakat aholisining asosiy qismi yashaydi

O'zbekiston geologik jihatdan harakatchan hudud bo'lib, tez-tez halokatli zilzilalar bo'lib turadi. SHunday zilzilalar qatoriga 1740 yildagi Urganch, 1797 yildagi Urgut, 1868 yildagi Samarqand, 1889 va 1902 yillarda Andijon, 1935 yildagi Boysun, 1946 yildagi CHotqol, 1966 yildagi Toshkent, 1976 yildagi Gazli, 1980 yildagi Nazarbek, 1985 yildagi Qayroqqum va boshqalarni kiritish mumkin. SHuning uchun, O'zbekiston hududlarida xo'jalik va aholi joylashishida tektonik jarayonlarni hisobga olish muhim ahamiyatga egadir.

Iqlimi. Mamlakatning katta qismi (shimolida) mo''tadil iqlim mintaqasiga va janubining chekka qismi subtropik iqlim mintaqasiga mansub bo'lib, keskin kontinental, quruq, issiq va yorug'lik ko'p tushadi. Natijada, tekisliklarda quyosh nurining davomiyligi o'rtacha 2500-3000 soatni (Farg'ona va Kitobda 2600 soat, Toshkentda 2889 soat, Termizda 3050 soat) tashkil qiladi va dunyodagi eng ko'p oftob (quyosh nuri) tushadigan hududlardan biri sanaladi.

Markaziy Osiyodagi ikki yirik tarixiy daryolar – Amudaryo (1415 km) va Sirdaryo (2212 km) O'zbekiston hududidan oqib o'tadi va davlatlararo transachegaraviy ahamiyatga ega. Bu daryolarning boshlanishi va suv yig'ish havzalari O'zbekistondan tashqarida bo'lib, mamlakatga Amudaryo suv yig'ish maydonining 8% (13,04 km²) va Sirdaryo suv yig'ish maydonining 10% (3,8 km²) to'g'ri keladi, xolos. SHuningdek, Norin, Qoradaryo, So'x, CHirchiq, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo va boshqa o'nlab daryo va soylar mavjud. Daryolar sug'orma dehqonchilik va elektr energiyasi hosil qilishda foydalaniladi.

Foydali qazilmalari. O'zbekiston hududi foydali qazilmalarga juda boy. Uning hududida 2700 dan ortiq konlar aniqlangan va uning 900 ga yaqini o'rganilgan. Yer osti boyliklari 3,5 trln. AQSH doll. atrofida baholanadi. Ayni vaqtda, Respublika istiqboli qimmatbaho, nodir va kamyob metallar, neft, tabiiy gaz va gaz kondensatlari, qo'ng'ir va kokslanuvchi ko'mir, yonuvchi slanets, uran va qurilish materiallarining ko'plab turlarini o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Ayniqsa, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, vol'frum, kaliyli tuzlar, fosforit, kaolin zahiralari va istiqbolli o'zlashtirilish jihatidan MDH doirasidagini emas, balki dunyoda ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Masalan, oltin zahiralari bo'yicha dunyoda 4-o'rinda, uni qazib olish bo'iicha 7-o'rinda turadi. O'zbekistonda 440 dan ortiq kon, shaxta, kar'er va boshqlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston MDH mamlakatlari o'rtasida tabiiy resurs salohiyati kattaligi jihatdan ajralib turadi. MDH mamlakatlaridagi kumush va kaolin zahiralarning 1/5 qismi, mis va dala shpatining 1/7 qismi, molibden va qo'rg'oshinning 1/10 qismi va oltin, uran, simob, rux,

volfram, kadmiy, tabiiy gaz va gaz kondensati, fosforit, kaliyli tuzlar va oltingugurtning sezilarli qismi O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi.

Xo'jaligi. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan yirik industrial-agrar davlat. XX asr 90-yillaridan boshlab iqtisodiyotda muhim sifat o'zgarishlariga asos solindi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov tomonidan O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontsepsiyasi ishlab chiqildi va muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Bu yo'l bugungi kunda haqli ravishda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan «o'zbek modeli» sifatida xalqaro iqtisodiy rivojlanish tarixiga kirdi.

O'zbekistonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va u butun milliy iqtisodiyot qiyofasini o'zgartirish bilan bog'liqdir. Amalga oshirilayotgan islohotlarning birinchi bosqichida (1991-1994 yy.) bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlariga o'tishning shart-sharoitlari tayyorlandi-ki, bu jarayon:

- islohotlar strategiyasi va taktikasini mamlakat tarixiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini, aholining mentalitetini hisobga olgan holda shakllantirish;
- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish asosida ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish asoslarini yaratish;
- milliy iqtisodiyotda eng murakkab soha – qishloq xo'jaligida iqtisodiy-tashkiliy islohotlarni boshlash negizida, mutloqo yangi tipdagi agrar munosabatlarni shakllantirish va qishloqda mulkdorlar sinfini yaratishga kirishish;
- ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish va yangi institutsional o'zgarishlar uchun yo'l ochish;
- narxlarni erkinlashtirish va bozor infratuzilmalarini shakllantirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish asosida mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga erishish;
- millatning (xalqning) ma'naviy-ruhiy jihatdan uyg'onishi;
- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj keng qatlamiga ishonchli ijtimoiy kafolatni ta'minlashdan iborat dasturlar amalga oshirildi.

Sanoati. Mamlakat milliy iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarishi muhim o'rin tutadi va mustaqillik yillarida sanoatning o'zak tarmoqlarini (elektroenergetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat) rivojlantirishga ustivor yo'nalish sifatida qaralmoqda. O'zbekistonda 100 dan ortiq sanoat tarmoqlari bo'lib, 12 ta yirik tarmoq va 6ta o'zak tarmoqlar mavjud. Asosiy fondlarning 40%, yalpi ichki mahsulotning 24% (2007 y)

mazkur tarmoqqa to'g'ri keladi. Sanoat tarmoqlariga 1,2 mln. dan ortiq ishchi va xizmatchilar yoki jami band aholining 13% to'g'ri keladi.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishi foydali qazilmalarni qazib chiqarish va unga qayta ishlov berish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga asoslangan. Mamlakatda yirik sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, amalda og'ir industriya, yengil va oziq-ovqat tarmoqlari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimlarini o'z ichiga oladi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan mingdan ortiq yirik va o'rta korxonalar, aksionerlik jamiyatlari, yirik assotsiatsiya va birlashmalar, xolding kompaniyalari, moliya-sanoat guruhlari va qo'shma korxonalar band.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston sanoatida muhim tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Yangi yirik va o'rta korxonalar tashkillandi, ishlab chiqarishga zamonaviy texnik va texnologik jarayonlar keng qo'llanildi. Natijada, sanoat ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 1998 yil 3,6%, 1999 yil 6,1%, 2000 yil 6,4% va 2003 yil 6,2% ni, 2007 yilda 12,1 % tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishida asosiy ustivor yo'nalish import o'rnini bosuvchi yuzlab mutloqo yangi mahsulot turlari – aviabenzin, uzatish moylari, reaktiv dvigatel moylari, tog'-kon sanoati jihozlari, quvur, elektr jihozlari va spirallari, emal simlar, maishiy nasoslar, nazorat-kassa apparatlari, yengil avtomobillar, optik tolali kabellar, elektr hisoblagichlar, don o'rish kombaynlari, avtobuslar, murakkab maishiy texnika, yengil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

O'zbekiston sanoatida bugungi kunda ishlab chiqarish va is'temol maqsadida foydalaniladigan yuzlab mahsulotlar – samolyotlar, traktorlar, yengil avtomobillar, kabellar, paxta terish kombaynlari, to'qimachilik dastgohlari, ekskavatorlar, ko'tarma kranlar, liftlar, kuch transformatorlari, kompressor stantsiyalari va trubokompressorlar, teleradio apparaturalar, xolodilniklar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, lak-bo'yoq mahsulotlari, mebel mahsulotlari, yengil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda (2007 y.) yoqilg'i-energetika majmuasi – 27,3%, metallurgiya sanoati – 18,2%, mashinasozlik sanoati – 15,1%, kimyo sanoati ulushi – 4,8%, qurilish materiallari sanoati – 5,3%, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash sanoati – 0,9%, yengil sanoat – 14,0%, oziq-ovqat sanoati – 8,9% va boshqa tarmoqlar – 6,4% o'ziga xos o'rin tutadi.

Yoqilg'i-energetika sanoati. Mamlakat yoqilg'i-energetika majmuasi neft, tabiiy gaz, ko'mir qazib chiqarish, uni qayta ishlash va elektr energetika sanoatidan iborat. O'zbekistonda (150 dan ortiq sanoat miqyosidagi neft-gaz konlari ochilgan va buning 115 tasi Buxoro-Xiva havzasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi viloyatlari, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurt platosida joylashgan) 70 dan ortiq neft, tabiiy gaz va gaz kondensati konlari, 3 ta ko'mir (Angren, SHarg'un va Boysun) konlaridan foydalanilmoqda. Yoqilg'i-energetika majmuasining yirik

korxonalari Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida joylashgan. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yoqilg'i-energetika majmuasining ulushi 1995 yil 18,3% dan 2003 yil 21,1% va 2007 yil 27,3% ga yetdi.

Neft sanoati. Mustaqillik yillarida ustivor tarmoq sifatida rivojlandi va mamlakatning «energetika mustaqilligi»ni ta'minladi. O'zbekistonda neft qazib chiqarish 1904 yil Farg'ona viloyatida (CHimyon) boshlangan va shu yil Oltiariq (Vannovsk) neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirilgan. Keyinchalik Surxondaryo viloyatida (Uchqizil, Xaudag) va Andijon viloyatida (Janubiy Olamushuk, Polvontosh), Buxoro-Xiva havzasidagi neft konlari o'zlashtirilgan. Mustaqillik yillarida istiqbolli Ko'kdumaloq neft-gaz kondensati havzasidan foydalanish boshlandi. 2003 yil 4387 ming t. neft qazib olindi. O'zbekiston neft qazib chiqarish bo'yicha MDH mamlakatlari o'rtasida 1991 yil 7-o'rindan (0,5%) 2000 yil 4-o'ringa (7,5 mln. t. neft-gaz kondensati) chiqdi. Ayni paytda 2007 yilda neft-gaz kondensati ishlab chiqarish 4,9 mln tonnani tashkil etib, 2000 yilga nisbatan sezilarli darajada kamaydi.

Mustaqillik yillarida Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida Ko'kdumaloq neft-gaz kondensati asosida Markaziy Osiyoda eng yirik va zamonaviy neftni qayta ishlash zavodi Frantsiya, Yaponiya va Turkiya firmalari bilan hamkorlikda barpo etildi va 1998 yildan boshlab o'z mahsulotini bera boshladi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi Yaponiya firmalari bilan hamkorlikda rekonstruktsiya qilindi va eng yangi texnik-texnologik jihozlar o'rnatildi. Bugungi kunda 50 dan ortiq neft mahsulotlari (benzin, jumladan, yuqori oktanli B-92 aviabenzini, dizel yoqilg'isi, motor va surkov moylari va boshq.) ishlab chiqarilmoqda va xorijga ham chiqarilmoqda.

Gaz sanoati – yoqilg'i-energetika majmuasidagi yetakchi tarmoq. O'zbekiston hududidan tabiiy gaz qazib chiqarish 1940 yillardan boshlangan va 14 km dan iborat birinchi gazoqava «Andijonsanoat» – Andijon shahri o'rtasida (1944 y.) qurilgan. 50-60 yillardan boshlab gazni sanoat asosida qazib olish boshlandi. Asosiy rayonlar Buxoro, Qashqadaryo (SHo'rtan), Farg'ona, Surxandaryo viloyatlari va Qoraqolpag'iston Respublikasi (Ustyurt). Sobiq SSSR davrida Buxoro-Ural, O'rta Osiyo-Markaz gazoprovodlari orqali muntazam Markaziy rayonlar (Moskva), Ural, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Boltiqbo'yi mamlakatlariga jo'natilgan. Magistral gaz quvurlarining umumiy uzunligi 12,5 ming km.dan ortadi. O'zbekistonda tabiiy gaz qazib chiqarish mustaqillik yillarida kengaydi. MDH mamlakatlari o'rtasida tabiiy gaz qazib chiqarish bo'yicha 1991 yil 3-o'rindan (39 mlrd. m³ va 5,2%). 2000 yilda 2-o'ringa chiqdi (56,2 mlrd. m³ va 8%). 2003 yil 57,7 mlrd. m³ tabiiy gaz qazib chiqarilgan bo'lsa, 2007 yilda 60,0 mlrd. m³ dan ortiq tabiiy gaz qazib chiqarildi.

Ko'mir sanoati. O'zbekistonda ko'mir qazib olish o'tgan asrning 30-yillar oxiri va 40-yillar boshlaridan boshlandi. 1940-1948 yillarda Angren ko'mir konidan ko'mir ochiq va yopiq

usulda qazib olindi. SHarg'un ko'mir konida (1958 yilda ishga tushirilgan) 2003 yil 2,0 mln. t. ko'mir qazib olindi. O'zbekiston MDH mamlakatlari o'rtasida ko'mir qazib olish bo'yicha 4-o'rinda turadi va dunyo mamlakatlari o'rtasida birinchi o'nlikka kiradi.

Elektroenergetika. O'zbekiston energetika tizimining umumiy quvvati 11,3 mln kVt/s bo'lgan 37ta issiqlik va gidrovlik elektr stantsiyalariga ega bo'lib, yiliga 48,9 mlrd. kVt/s dan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

Yoqilg'i-energetika balansida issiqlik elektr stantsiyalari va markazlari (IES, IEM) va gidroenergo stantsiyalari (GES) asosiy o'rin tutadi. 2007 yilda mamlakatda 48,9 mlrd kVt/s elektr energiyasi hosil qilindi va buning 88% dan ortig'i IES va IEM, 12% GES lar hissasiga to'g'ri keladi. Yirik IES va IEMlar Sirdaryo GRES, Farg'ona IEM, Muborak IEM va Toshkent IEMdir. Mamlakatdagi eng yirik GESlar – CHorvoq GES (CHirchiq daryosida), Xo'jakent GES (CHirchiq daryosida), G'azalkent GES (CHirchiq daryosida), Farxod GES (Sirdaryo daryosida), Andijon GES (Qoradaryo), Tuyamo'yin GES (Amudaryo) va boshq.

Metallurgiya sanoati ikki yirik qora va rangli metallurgiya tarmoqlaridan iborat. O'zbekiston qora metallurgiya korxonasi 1944 yil Bekobod shahrida ishga tushgan. Asosan po'lat, cho'yan, po'lat quvurlar, prokat va keng iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaradi. 2007 yil 656,4 ming t. po'lat eritildi. Qora metallurgiya tarmog'ining sanoat mahsuloti ishlab chiqarishdagi ulushi 2,% ni tashkil qiladi. MDH mamlakatlari o'rtasida po'lat eritish bo'yicha 6-o'rinda turadi. Mustaqillik yillarida mamlakat hududidan temir, titan, marganets, xrom va boshqa (Orol bo'yi, Qizilqum, Forish, Zarafshon, Farg'ona vodiysi va boshq.) metall zahiralirining topilishi bu tarmoqning istiqbolini belgilaydi.

Rangli metallurgiya O'zbekiston milliy iqtisodiyotidagi yetakchi soha sifatida o'tgan asrning 30-yillaridan rivojlana boshlagan. Rangli, nodir, kamyob va sochma metallarning zahiralari Markaziy Qizilqum, Janubiy Tyan'-Shan', CHotqol-Qurama, Nurota, Molg'uzor va Farg'ona vodiysida joylashgan.

O'zbekiston zamonaviy rangli metallurgiya sanoatiga ega davlat. Uning mamlakat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 15,7% (2007 y). MDH davlatlari o'rtasida oltin eritish bo'yicha 2-o'rinda (Rossiyadan so'ng), kumush, mis, qo'rg'oshin va rux eritish bo'yicha 3-o'rinda (Rossiya va Qozog'iston) turadi. Dunyoda oltin zahiralari bo'yicha 4 va uni qazib olish bo'yicha 7-o'rindadir.

Rangli metallurgiyada oltin qazib olish va uni qayta ishlash sanoati, mis-qo'rg'oshin-rux sanoati, vol'fram-molibden va kamyob yer elementlari metallurgiyasi sanoati rivojlangan. Mamlakatda oltin qazib olish va uni qayta ishlashda 1994 yil tashkil etilgan «O'zolmosoltin» uyushmasi va «Qizilqumkamyobmetallar» oltin konlari (bosh korxona Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati Navoiy shahrida joylashgan) yetakchi o'rin tutadi. Mis-qo'rg'oshin-rux

sanoati Angren-Olmaliq tog'-sanoat rayonida (Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Olmaliq shahri) rivojlangan va volfram-molibden sanoatining yirik korxonasi «O'zbekiston qattiq qotishmalar va o'tga chidamli metallar» kombinatidir (CHirchiq). Kombinat 100 dan ortiq mahsulotlar ishlab chiqaradi va uning mahsulotlari elektrotexnika, po'lat eritish, kon burg'ulash sohalarida qo'llaniladi. 1996 yildan Respublika ehtiyojini qoplaydigan elektr lampochkalar ishlab chiqarilmoqda.

Kamyob yer elementlari metallurgiyasi sanoati mahsulotlari – kamyob yer metallarining alyuminiy va magniy bilan qotishmalari, o'tga chidamli qotishmalar turli sanoat tarmoqlarida keng qo'llanilmoqda. SHuningdek, zamonaviy ilg'or texnologiyalarni joriy etish maqsadida kukunlar metallurgiyasi ham jadal rivojlanmoqda.

Mustaqillik yillarida xorij kapitali asosida rangli metallurgiya sanoatida AQSH bilan hamkorlikda «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi (yillik quvvati 12-13 t.) va boshqa qo'shma korxonalar ishga tushirildi.

Mashinasozlik majmuasi. O'zbekiston iqtisodiyotida mashinasozlik majmuasi hissasiga ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsuloti qiymatining 15,0% va Markaziy Osiyo davlatlaridagi mashinasozlik mahsulotlarining 2/3 qismi to'g'ri keladi. Mashinasozlik majmuasi sertarmoq bo'lib, zamonaviy avtomobilsozlik, samolyotsozlik, traktorsozlik va qishloq xo'jalik texnikasi jihozlari, elektrotexnika va elektronika, radioelektronika, maishiy texnika va turli jihozlar hamda boshqa ko'plab mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bugungi kunda dunyoda faqat ikkita mamlakat paxtachilik majmuasi uchun to'la mashina va jihozlar ishlab chiqaradi. Ular AQSH va O'zbekistondir. O'zbekiston - Markaziy Osiyodagi yagona ipakchilik tarmog'i uchun texnika ishlab chiqaruvchi mamlakat. MDH mamlakatlari doirasidagi yirik samolyotsozlik korxonalaridan biri O'zbekistonda (Toshkent) joylashgan. O'zbekiston mashinasozlik majmuasi 15 tarmoqqa mansub, 100 dan ortiq yirik korxonalar, aktsiyadorlik birlashmalari, xolding kompaniyalari, moliya-sanoat guruhlaridan iborat. Mashinasozlik majmuasida – avtomobilsozlik, traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, to'qimachilik, radioelektrotexnika va radiotexnika, asbobsozlik, kimyo va neft-kimyo, qurilish va yo'l mashinasozligi, kommunal xo'jaligi, maishiy-ro'zg'or texnikasi va boshqa tarmoqlar mavjud.

Avtomobilsozlik – mashinasozlik majmuasidagi yangi tarmoq bo'lib, mustaqillikning dastlabki mevasidir. 1996 yil Andijon viloyatining Asaka shahrida Koreya Respublikasining «DEU korporeyshn» korporatsiyasi bilan hamkorlikda Markaziy Osiyodagi eng yirik avtomobil zavodi ishga tushdi (loyiha quvvati yiliga 250 ming dona yengil avtomobillar ishlab chiqarish). Bugungi kunda zavodda yengil avtomobillarniig keyingi avlodi («Matiz», «Neksiya», «Damas» va «Lasetti») ishlab chiqarilmoqda. Ayni vaqtda, avtomobillarning butlovchi qismlarini yetkazib beruvchi (oyna disk o'rindiq va boshq) korxonalar ham ishga tushirilgan hamda bu borada keng

miqyosda mahalliyashtirish dasturi izchil amalga oshirilmoqda. 2007 yildan AQSH ning “Jenerol Motors” kompaniyasi bilan hamkorlikda avtomobillarning “SHevrolet”, “Takuma”, “Ikeka” kabi yangi zamonaviy modellari ishlab chiqarila boshlandi.

Samarqand shahrida Turkiya bilan hamkorlikda yo’lovchi va yuk tashishga mo’ljallangan «Samko’chavto» zavodida «Otayo’l» avtobuslarini va yuk mashinalarini ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi. 2007 yilda Samarqand avtomobil zavodi Yaponiyaning “Suzuki” kompaniyasi bilan hamkorlikda yuk mashinalari va avtobuslardan tashqari maxsus avtomobillar ishlab chiqarishni yo’lga qo’ydi. O’zbekiston MDH davlatlari o’rtasida yengil avtomobillar ishlab chiqarish bo’yicha 2-o’rinda (Rossiya), yuk mashinalari va avtobuslar ishlab chiqarish bo’yicha 4-o’rinda (Rossiya, Belarus, Ukraina) turadi. Respublikada avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirishning yangi loyihalari amalga oshirilmoqda.

Traktorsozlik va qishloq xo’jaligi mashinasozligi o’tgan asrning 30-yillarida rivojlangan va paxtachilik majmuasi uchun kompleks texnika va jihozlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Traktor va qishloq xo’jaligi uchun texnika va jihozlar ishlab chiqarish (43 dan ortiq nomda) Toshkent shahrida. (Toshkent traktor zavodi birlashmasi, «O’zbekqishloqmash» birlashmasi, «O’zitalmotor» aktsiyadorlik jamiyati va boshq.), CHirchiq shahrida (bog’dorchilik, uzumchilik va polizchilik uchun texnika va jihozlar), Urganch shahrida («Urganchozuqamash») joylashgan.

To’qimachilik mashinasozligi to’qimachilik mashinalari, apparatlari va turli jihozlar (50 dan ortiq) ishlab chiqaradi va asosiy korxonlari Toshkent va Qo’qon shaharlaridadir.

Radioelektronika va elektronika sanoati korxonalari Toshkent va Andijon shaharlarida joylashgan bo’lib, tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 80%, elektronika mahsulotlarining 90-95% Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog’iston va boshqa mamlakatlarga chiqariladi. Tarmoqda Rossiya, Turkiya, Koreya Respublikasi, AQSH, Singapur va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan 20 dan ortiq qo’shma korxonalar barpo qilingan.

Asbobsozlik sanoatining yirik korxonasi Toshkent «Elybor» birlashmasi (1990 y.) mashinasozlik uchun qirquv va o’lchov asboblari, chilangarlik-sozlash asboblari va moslamalar ishlab chiqaradi va chet ellarga ham chiqaradi.

Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi korxonalari CHirchiq va Toshkent shaharlarida joylashgan va ko’chma kompressor stantsiyalarining turli modellari, kimyo, mikrobiologiya sanoati uchun xilma-xil jihozlar ishlab chiqaradi.

Samolyotsozlik XX asrning 40-yillaridan boshlab rivojlandi va bugungi kunda zamonaviy havo laynerlari Rossiya va Ukraina davlatlari bilan hamkorlikda chiqarilmoqda («IL-114», «IL-76T» samolyotlari). Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan samalyotlar Xitoy, Rossiya, Hindiston va boshqa xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi. «Toshkent aviatsiya ishlab

chiqarish birlashmasi» aksionerlik jamiyati nafaqat Markaziy Osiyo balki Osiyodagi eng yirik samolyotsozlik korxonalaridan biridir.

Qurilish va yo'l mashinasozlik korxonalari Toshkent va Andijon shaharlarida joylashgan. Turli markadagi ekskavatorlar, ko'p tirgakli osma kranlar, to'rt oyoqli gidrotaqsimlagichlar, irrigatsiya texnikasi, xilma-xil jihozlar va moslamalar ishlab chiqaradi. Samarqand shahrida yo'lovchi va yuk tashiydigan liftlar, ishlov beradigan dastgohlar, xalq iste'mol buyumlari, sovutgichlar, kir yuvish mashinalari va boshqa maishiy-ro'zg'or texnikasi ishlab chiqariladi.

Kimyo sanoati. Mamlakat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kimyo sanoati ulushi 4,8% (2007 y) tashkil qiladi va tarmoqda 750 dan ortiq nomda xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqariladi. 2007 yil 1022,2 ming t. mineral o'g'it (azot 879,0 ming t va fosforli 143,1 ming t.), 1224,0 ming t. sintetik ammiak, 976,9 ming t. sulfat kislotasi, 15703 t. kimyoviy tola va 1734 t. sintetik yuvish vositalari, 1909 t. o'simliklarni himoya qilish vositalari, shuningdek, quvur va uning qismlari, maishiy kimyo mahsulotlari, farmatsevtika, parfyumeriya-kosmetika, rezina mahsulotlari hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqardi. Polietilen, fosforit, soda, kaliyli o'g'itlar avtomobil shinalari va boshqa ko'plab neft-kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar yetarli. SHo'rtan gaz-kimyo majmuasi – Markaziy Osiyodagi eng yirik kimyo sanoati korxonasi bo'lib, O'zbekiston faxri hisoblanadi. (Korxona yiliga 125 ming t. polietilen, 137 ming t. suyultirilgan gaz va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatiga ega.).

Mikrobiologiya sanoati – oqsil, ksilit, turli spirt (etil spirti) va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Yirik korxonalari Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, CHirchiq, Navoiy, Olmaliq, Qo'qon, Yangiyo'l va boshqa shaharlarda joylashgan.

Engil sanoat. O'zbekiston yengil sanoati yirik sertarmoq industrial majmua bo'lib, ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Yengil sanoat hissasiga mamlakat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining 14,0%, sanoat korxonalarining asosiy fondlar va tarmoqda bandlarning 1/3 qismidan ortig'i, tashqi savdo aylanmasi, moliya va valyuta tushumlarining sezilarli qismi to'g'ri keladi.

Engil sanoat majmuasining asosiy tarmoqlari – paxta tozalash, to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sohalardir.

O'zbekiston gazlama ishlab chiqarish bo'yicha MDH davlatlari o'rtasida 2-o'rinda (Rossiya) va poyabzallar ishlab chiqarish bo'yicha 4-o'rinda (Rossiya, Belarus va Ukraina) turadi.

Paxta tozalash sanoatida eng zamonaviy texnik va texnologik jarayonlarni qo'llash va paxta tolasining jahon standartlariga mos bo'lishi uchun ilg'or mamlakatlar (AQSH, SHveytsariya va boshq.) bilan ilmiy-texnik hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Turkiya va boshqa

davlatlar bilan hamkorlikda paxtani qayta ishlashdan, to to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga qadar jarayonlarni qamrab olgan korxonalar Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqolpog'istonda («Elteks») barpo etildi. 2007 yil 1125,4 ming t. paxta tolasi va 81,6 ming t. kalava ip tayyorlandi.

To'qimachilik sanoatining yirik korxonalari Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan shaharlarida joylashgan. Mustaqillik yillarida jahon bozorida raqobatbardosh gazlamalar ishlab chiqarish maqsadlarida AQSH, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar bunyod etildi. Bunday qo'shma korxonalarga «Kobul-To'ytepa», «Kosonsoy-Tekmen», «Pop-fen», «Asnam tekstil», «Qorakulteks», «CHinoz to'qimachi », «Besteks», «Oyim to'qimachilik», «Surxon to'qimachilik», «Yadem to'qimachilik», «Velaysilk» va boshqa korxonalarni kiritish mumkin.

Ipakchilik sanoatining markazi Marg'ilon shahridir. SHuningdek, Namangan, Samarqand va Qo'qon shaharlarida ipakchilik kombinatlari mavjud. Tarmoqda xorij kapitali ishtirokida qo'shma korxonalar barpo qilingan. Trikotaj va tikuvchilik sanoati rivojlangan markazlar – Toshkent, Andijon, Samarqand, Buxoro, Qo'qon va boshqa shaharlardir.

Ko'n-poyabzal sanoati Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Namangan va boshqa shaharlarda joylashgan. Mo'yna sanoati Toshkent (Toshkent ko'n-mo'yna zavodi) va Buxoro (Buxoro qorako'l zavodi), chinni-fayans sanoati (Toshkent, Samarqand, Quvasoy), kanop sanoati (Toshkent viloyati), gilam sanoati, (Xiva), ipak gilam (Samarqand, Buxoro), mebel' sanoati (Toshkent, Samarqand, Andijon, Quva va boshq.), mahalliy sanoat (xalq istemol mollari ishlab chiqarish) va uning tarmoqlari - milliy kashtachilik (Toshkent, Andijon, CHust, Namangan, Qashqadaryo), milliy gazlama (Marg'ilon, Kitob), qo'lda gilam to'qish, pichoqchilik (CHust) va boshqa tarmoqlar rivojlangan. Mahalliy sanoat tarmoqlarida 30 dan ortiq qo'shma korxonalar tuzilgan va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning bir qismi eksport qilinadi.

Oziq-ovqat sanoati. O'zbekiston iqtisodiyotida oziq-ovqat sanoati muhim tarmoq hisoblanadi. Mamlakat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishidagi hissasi 8,9% dan iborat. Oziq-ovqat sanoati yirik va o'rtacha korxonalardan iborat bo'lib, unda konservalar, o'simlik moyi hayvon yog'i, margarin, go'sht-sut mahsulotlari, qandolat, choy qadoqlash, vino, aroq-likyor, un-yorma, non va non mahsulotlari, makaron, tamaki, pivo va alkogolsiz chanqovbosdi ichimliklar, sovun, osh tuzi, meva soklari va boshqa keng assortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

O'zbekiston MDH mamlakatlari o'rtasida o'simlik moyi chiqarish bo'yicha 3-o'rinda (Rossiya, Ukraina) va hayvon yog'i ishlab chiqarish bo'yicha 6-o'rinda (Rossiya, Ukraina, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'iston), shakar ishlab chiqarish bo'yicha 7-o'rinda (Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Moldova, Qirg'iziston) turadi. Yirik markazlari – Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Urganch, Qo'qon va boshqa shaharlardir.

Qishloq xo'jaligi. O'zbekiston yer yuzidagi eng qadimgi sug'orma dehqonchilik madaniyati rivojlangan hududlardan biridir. Arxeologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha aholi eramizdan avvalgi 7-6 asrlarda paxta, 3 ming yil oldin esa donli ekinlar, poliz ekinlari, bog'dorchilik va uzumchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan, sug'orish ishlari amalga oshirilgan. O'zbekistonda Sovetlar hokimiyati o'rnatilgunga qadar qishloq xo'jaligi ekstensiv asosda rivojlangan va tipik qishloq xo'jaligi (1913 yil iqtisodiyotda qishloq xo'jaligining hissassi 88% tashkil qilgan) hududi bo'lgan. Sovetlar davrida qishloq xo'jaligi ekstensiv va intensiv usullar asosida rivojlandi. Yerga xususiy mulkchilik bekor qilindi. Qishloq xo'jaligida yirik davlat (sovxoz) va kollektiv (kolxoz) xo'jaliklari tuzildi. O'zbekiston boy ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat resurslari negizida Sobiq SSSRning yirik qishloq xo'jaligi mintaqasiga aylandi. Uzoq yillar davomida O'zbekiston SSSRning «paxta mustaqilligi»ni ta'minlashi oqibatida qishloq xo'jaligida «paxta yakkahokimligi» qaror topdi. Natijada, o'tgan asrning 80-yillari oxirida mamlakatdagi ekin maydonlarining 60% dan ortig'iga paxta ekildi. Ilmiy asoslangan almashlab ekishning izdan chiqishi yerlarning meliorativ holati yomonlashuviga, haddan tashqari zaharli ximikatlarning, turli mineral o'g'itlarning ko'p qo'llanilishi tuproq unumdorligiga zarar yetkazdi. Natijada, mamlakat aholisining 61% ortig'i qishloqlarda yashashi, qishloqlardagi o'n yillar davomida yig'ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar ma'lum ma'noda mustaqillikning dastlabki yillarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanish sur'atlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Tarixiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga ko'ra iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq bo'lib qolmoqda. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining 32,0% (2007 y), bandlarning 1/3 qismidan (3 mln.dan ortiq) va valyuta tushumlarining 50% qishloq ho'jaligi ishlab chiqarish hissasiga to'g'ri keladi.

Xulosa

O'rta Osiyo aholisi so'nggi oltmish yil ichida, ikkinchi jahon urushi yillaridagi katta yo'qotishlarga qaramay, salkam 3 baravar ko'paydi hamda 2004 yilning 1 yanvar kuniga nisbatan 56,8 mln. kishini tashkil etdi. Bu jahon aholisining o'rtacha o'sish sur'atlaridan birmuncha yuqoridir. Mintaqada aholining son jihatdan o'sishida tabiiy ko'payishjarayoni asosiy omil hisoblansa-da, unda migratsion harakatlarning hissasi ham kam emas. Mintaqa respublikalarida demografik holat bir xil emas. Aholisining tarkibida ruslar va boshqa yevropalik millatlar hissasi katta bo'lgan Qozog'iston va Qirg'izistonda tug'ilish ko'rsatkichlari ancha past. Sobiq Ittifoq davrida O'rta Osiyoning barcha respublikalarida iqtisodiyot uchun eng zarur bo'lgan xomashyo va yarim xomashyo mahsulotlar ishlab beruvchi tarmoqlarni rivojlantirishga erishildi. Ular, eng awalo, tog'-kon sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jalik (awalo. paxta) mahsulotlari yetishtirish va ularni dastlabki qayta ishlash sohalari edi. O'rta Osiyo ishlab chiqarish hajmiga ko'ra sobiq Ittifoqning paxta, pilla, qorako'l terilari, sholi, quritilgan mevalar, mis, volfram, xrom, simob, uran, oltin, qo'rg'oshin kabi sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi birinchi rayoni bo'lib keldi. Neft, tabiiy gaz, elektr energiyasi, paxtachilik majmuasida xizmat qffishga mo'ljallangan mashina va uskunalar yetkazib berishda ham regionning salmog'i ancha katta edi.

Barcha respublikalar sanoatida undiruvchi sanoat tarmoqlarining ahamiyatl katta. Bu tarmoqlar guruhiga kiruvchi yoqilg'i-energetika, metallurgiya, kimyo sanoatlari salmog'i, ayniqsa, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston Respublikalarida ancha katta.

Yoqilg'i tarmoqlari orasida neft sanoatining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Neftni qazib chiqarishda Qozog'iston (48 mln.t.), O'zbekiston (7 mln.t.) va Turkmaniston (5,5 mln.t.) ajralib turadi. Tabiiy gaz qazib chiqarishda bu respublikalarning imkoniyati yanada kattadir. Bu borada, ayniqsa, Turkmaniston atohida ajralib turadi. Gaz zaxiralari hajmiga ko'ra u sobiq Ittifoq respublikalari ichida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Gazni qazib chiqarishda esa O'zbekiston yetakchilik qiladi. Bu boyliklanu keng doirada o'zlashtirish va ularni jahon bozorlariga olib chiqish endigina amalga oshmoqda Mintaqa respublikalari (Turkmanistondan boshqalari) **ko'mirga** ham ancha boy.

Elektr energetika sanoati mintaqaning barcha respublikalarida nisbatan yaxshi rivojlangan. Qozog'istonda salkam 90 mlrd. kVt/soat, O'zbekistonda esa 48—50 mlrd. kVt/soat elektr energiya ishlab chiqariladi.

Metallurgiya sanoati O'rta Osiyo Respublikalarida bir tekis rivojlanmagan. Qozog'iston bu o'rinda keskin ajralib turadi (4 mln. tonna po'lat, qo'rg'oshin-rux, mis, xrom ishlab chiqaradi). O'zbekistonda 0,4 mln. tonna po'lat va ko'p miqdorda qo'rg'oshin-rux, mis, oltin, kumush va boshqa nodii metallar ishlab chiqariladi.

Kimyo sanoatining mintaqa respublikalaridagi asosiy o'rni qishloq xo'jaligiga xizmat qilishdir. Shu sababdan, Qirg'izistonni hisoblamaganda, barcha respublikalarda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish mazkur sanoat tarmog'ining bosh ixtisosi sifatida rivojlangan.

Mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy tayanch tarmog'i hisoblanadigan **mashinasozlik sanoati** esa mintaqa respublikalari orasida O'zbekiston va Qozog'istondagina birmuncha rivojlangan.

Mintaqaning barcha respublikalarida **yengil va oziq-ovqat sanoatlari** muhim o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligi O'rta Osiyo davlatlarining an'anaviy ishlab chiqarish sohasidir.

O'rta Osiyoda **dehqonchilik tarmoqlari** qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib beradi. O'rta Osiyo dehqonchiligining tarkibi respublikalarda bir-birlaridan farq qiladi. Jumladan, Qozog'iston, Qirg'izistonda **donchilikning** ahamiyati juda katta. Qozog'iston don yetishtirishda jahondagi eng yirik davlatlardandir. Sug'orma dehqonchilikka asoslangan O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda esa texnik ekinlar, eng awalo, paxtachilikning ahamiyati kattadir. **Chorvachilikda** mintaqaning deyarli barcha davlatlarida **qo'ychilik** yetakchi tarmoq hisoblanadi. Uning ahamiyati, ayniqsa, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmanistonda katta. **Qoramolchilik** mintaqa respublikalarining, ayniqsa, aholi nisbatan zich yashaydigan vodiylar va vohalarida, industrial markazlari atrofi hududlarida ko'proq rivojlangan. O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalarida chorvachilikning **tuyachilik** (cho'l hududlarida), **pillachilik**, **asalarichilik** (tog' va tog'oldi hududlarida), **yilqichilik** kabi tarmoqlari ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov. I. A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida». Toshkent. 1998y.
2. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. «O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi» Toshkent. 2002y.
3. «O'zbekiston Respublikasi» 1997y.
4. Vaxobov. X. «Iqtisodiy geografiya asoslari» T-2001 y.
5. Vaxobov. X. «O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi» 7-sinf T-2013 y.
6. Mamatkulov M, Safarov I. «O'rta Osiyo Geografiyasi» ma'ruzalar matni, T-2000y.